

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI

QOSIMJON SODIQOV

**YUSUF XOS HOJIBNING
«QUTADG‘U BILIG»
MASNAVIYSI**

«Pages print» nashriyoti
Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.1-9

KBK: 83.3(5)

S 75

Sodiqov Q.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» masnaviysi [Matn]: risola / Qosimjon Sodiqov. – Toshkent: «Pages Print» nashriyoti, 2025. – 56 b.

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor **Boqijon To‘xliyev**
filologiya fanlari doktori, professor **Qudratulla Omonov**

Ushbu risolada XI yuzyilda yashab ijod etgan ulug‘ shoir va faylasuf Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Qut berguchi bilim» / «Baxtga eltuvchi kitob») asariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yodgorlikning turkiy yozma adabiyot tarixida tutgan o‘rni, uning tuzilishi, matniy va janr xususiyati, masnaviyda ishlatilgan diniy-falsafiy, astronomik atamalar tahlilga tortilgan.

Risola oliy o‘quv yurtlarining turkiy filologiya yo‘nalishlarida bilim o‘rganayotgan ilmi toliblar, shuningdek, ota-bobolarning yozma merosi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Risola O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining «Qutadg‘u bilig» asari medialoyihasi doirasida (2025 yil) bajarildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Kengashi nashrga tavsiya qilgan (Kengashning 2025- yil, 28- iyundagi 11- sonli majlisi qarori).

ISBN 978-9910-8038-5-7

© Qosimjon Sodiqov, 2025

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025

© O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, 2025

© «Pages Print» nashriyoti, 2025

KIRISH

Balasagʻun mavludligʻ Yusuf Xos Hojib qoraxoniylar davri, qolaversa, eski turkiy yozma adabiyotining ulugʻ namoyandasi, buyuk shoir va faylasuf, davlat arbobi oʻtgan.

Shoirning hayoti va ijodi toʻgʻrisida xabar beruvchi yolgʻiz manba uning oʻz «Qutadgʻu bilig» masnaviysidir. Boshqa biror manba hozircha aniqlangani yoʻq.

Asar muqaddimasida yozilishicha, Yusuf – uning oti, Xos Hojib – unvonidir. Kitobda muallif *Yūsūf, Yūsūf Xās Hājib, Yūsūf uluy Hājib, Yūsūf uluy Xās Hājib, Yūsūf čilbaši* deb tilga olingan.

Yusuf Xos Hojib ushbu kitobni Koshgʻarda ekanligi chogʻida yozib tugallaydi va qoraxoniylardan boʻlmish Tavgʻach Bugʻraxonga tortiq qiladi. Bu toʻgʻrida asarning nasriy muqaddimasida shunday yozilgan: *Bu kitābnī taṣnīf qiliyli Balasayun mavludliḡ parhīz iḡisi er turur. Ammā bu kitābnī Kāšyarda tūgāl qilip, Mašriq maliki Tawḡaçxan ūskingā kikürmiš* (Bu kitobni bituvchi Balasagʻun mavludligʻ, parhiz egasi er turur. Ammo bu kitobni Koshgʻarda tugal qilib, Mashriq maliki Tavgachxon qoshigʻa keltirmish) (QBN.2a,7–9).

Asarda xon *Buyraxan, Mašriq maliki Tawḡaçxan, malik Buyraxan, Tawḡaç Qara Buyra xanlar xanī, Tawḡaç uluy Buyra Qaraxan aba ʻAli Hasan binni Arslanxan, Tawḡaç uluy Buyraxan* deb tilga olingan.

Masnaviy xonga gʻoyat manzur boʻldi va muallifni oʻz saroyida xos hojiblik lavozimiga koʻtardi. Shundan soʻng shoirning nomi elda Yusuf ulugʻ Xos Hojib deb dovrugʻ qozongan edi. Yana nasriy muqaddimadan oʻqiymiz: *Malik anī ayirlap, uluylap öz xās ḡājibliqī aḡa bermiš turur; anīḡ üčün Yūsūf uluy Xās Hājib tep atī čawī yazilmış turur* (Malik Bugʻraxon uni qadrlab, oʻz xos hojibligʻini unga berib yorlaqamishdir. Shuning uchun oti-dovrugʻi Yusuf ulugʻ Xos Hojib deb yoyilmishdir) (QBN.2a,10–12).

Shoirning tugʻilgan va oʻlgan yillari toʻgʻrisida aniq maʼlumot yoʻq. Shunga qaramay, uning tugʻilgan yilini aniqlasa boʻladigan ishoratlar bor. Chunonchi, «Kitobning maʼnosini aytadi, yana oʻz qariligini soʻzlaydi» deb ataluvchi oʻn birinchi bobida Yusuf Xos Hojib kitobni yozayotgan chogʻda yoshi ellikdan oshib, oltmishga qadam qoʻygani taʼkidlagan:

*Tegürdi menä elgi elig yašim,
Quyu qıldı quzyun buši-teg başim.*

*Oqir emdi altmiš menä kel teyü,
Pusuŷ čiqmasa yolda, bardim sayu.*

«Ellik yoshim menga qoʻl tegurdi, / Qora quzgʻun tusidek boshimni oq(qush) qildi [yaʻni, soch-soqolim oqardi].

Endi oltmish (yosh) menga «kel» deya chorlamoqda, / Yoʻlda pistirma [yaʻni, oʻlim] chiqmasa, u sari borgʻum» (QBH.11b.22–23).

«Qutadgʻu bilig» hijriy 462- (= milodiy 1069–1070-) yili yozib tugallangan. Bu haqda masnaviyning soʻnggi «Kitob egasi Yusuf Xos Hojib oʻziga pand berur» bobida shunday yozadi shoir:

*Yil altmiš iki erdi tört yüz bilä,
Bu söz sözlädim men tutup jän sürä.*

«Toʻrt yuz oltmish ikkinchi yil edi, / Jon koyitib bu soʻzlarni soʻzladim [yaʻni, adogʻiga yetkazdim]» (QBQ.10b,9).

Muallif oʻz asari ustida oʻn sakkiz oy ishlagan. Bunga urgʻulab deydi:

*Tügäl on sekiz ayda aydim bu söz,
Ödürdüm, adirdim söz ewdip terä.*

«Bu soʻzni tugal oʻn sakkiz oyda aytib boʻldim, / Tanladim, farqladim, soʻzni yigʻib terdim» (QBQ.10b,10).

Yuqoridagi maʼlumotlarga koʻra, shoir oʻz kitobi ustida oʻn sakkiz oy ishlab, uni hijriy 462- yili yakunlagan boʻlsa (asarni boshlaganda yoshi ellikdan oshgan edi), chamasi uning hijriy 410- yillarda tugʻilgani ayon boʻladi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» masnaviysi qoraxoniylar davri yozma adabiyoti va adabiy tilining ulugʻ obidasidir.

Yusuf Xos Hojib bu asari bilan maʼnaviyatimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk kashfiyotlar qildi.

«Qutadgʻu bilig»ni chuqur oʻrgangan olimlardan biri V.V. Radlovdir. U uygʻur yozuvli qoʻlyozma asosida birinchilardan boʻlib asarni nashr ettirdi.

Asarni nashrga tayyorlashda turk olimi R.R. Arat katta ishlar qildi. U mavjud qoʻlyozmalar asosida asarning yigʻma matnini yaratib, turkcha oʻgirmasi va izohlari bilan chop ettirdi.

Ingliz, rus tillarida asarning tarjimasini ham chiqqan. Uning ruscha sheʼriy tarjimasini S.N. Ivanov amalga oshirdi.

«Qutadgʻu bilig» boʻyicha uygʻur olimlari ham yaxshi ishlar qildi.

«Qutadgʻu bilig»ni nashrga tayrlash va uni oʻrganishda oʻzbek olimlarining ham ulushi katta. Bu sohada Q. Karimov koʻzga koʻringan ishlarni amalga oshirdi. U asarning ilmiy transkripsiyasi va hozirgi oʻzbek tiliga oʻgirmasini yaratdi. Q. Karimovning ilmiy nashri turkologiyada keng eʼtirof etilgan.

Oʻzbekistonda «Qutadgʻu bilig»ni tadqiq etishda B. Toʻxliiev va Q. Sodiqovning ham xizmati katta.

MASNAVIYNING QOʻLYOZMA NUSXALARI

Yusuf Xos Hojib «Qutadgʻu bilig» masnaviysining uch yirik qoʻlyozmasi maʼlum: biri uygʻur, ikkisi arab xatida.

XI–XV yuzyillarda «Qutadgʻu bilig»ning uygʻur hamda arab yozuvli qoʻlyozmalari keng tarqalgan. Asarning mavjud qoʻlyozmalari ichida arab yozuvli Namangan va Qohira nusxalari eskiroqdir. Ulardan biri taxminan XIII yuzyilda koʻchirilgan, hozir Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (1809- sonli qoʻlyozma). Bu nusxa *Fargʻona* yoki *Namangan nusxasi* deb ataladi.

Asarning arab yozuvli boshqa bir qoʻlyozmasi, taxminlarga qaraganda, XIV yuzyilda koʻchirilgan, hozir Qohirada saqlanmoqda (Misr Milliy kutubxonasi, 168- sonli qoʻlyozma).

Uygʻur yozuvli qoʻlyozmani XV yuzyilda Hirotda Hasan Qora Sayil Shams baxshi koʻchirib tugallagan, hozir Venada saqlanayotir (Wien, ÖNB, Cod. A.F.13). Shunga koʻra, *Vena* yoki *Hirotda nusxasi* deyiladi.

Hasan Qora Sayil Shams oʻz matnini hijriy 843-, qoʻy yilida, muharram oyining toʻrtinchi kuni (= milodiy 1439- yilning 18- iyunida) Hirotda koʻchirib tugatgan. Bu toʻgʻrida 93b- betda masnaviy tugagandan keyingi tarixda shunday qayd etilgan: *Tügändi Qutadğu kitabı tarix sekiz qırq üç yılda qoy yıl muharram aynıñ törti Haruda*. Kitobning 93a- betida baxshining 38 baytli qasidasi va toʻrtligidan keyingi tarixda ham yuqoridagi sana qaytariladi: *Tarix sekiz yüz qırq üçtä qoy yıl axiri muharram aynıñ tört yañisi Haru şahrında bitildi*.

Muhimi, Qoraxoniylar davlatida eski turkiy-uygʻur xatining mavqei hali yuqori edi. Mahmud Koshgʻariy ham oʻzining «Devonu lugʻati-t-turk» asarida turkiy xalqlarning milliy yozuvi toʻgʻrisida soʻz yurita turib, ana shu yozuvni keltirgan.

Yusuf Xos Hojib oʻz asarini uygʻur xatida yozib, xonga tortiq qilgan. Keyinchalik, asarning kengroq yoyilishini koʻzda tutgan holda, arab yozuviga ham oʻgirilgan koʻrinadi.

Uygʻur yozuvli qoʻlyozma ikki baxshining qoʻlidan chiqqan: kitobning 1b–93b- betlaridagi masnaviyni va undan keyingi qasidani Hasan Qora Sayil Shams baxshi koʻchirgan; kitobning ilk sahifasidagi bol shoʻrvasi tayyorlash yoʻrigʻini (*bal čobrasiniñ 'ilmi*), shuningdek, qoʻlyozma oxiridagi toʻrtliklar va ayrim qaydlarni keyinchalik Istanbulda Abdurrazzoq baxshi yozib qoʻygan.

Muhimi, uygʻur yozuvli qoʻlyozma yakuniga kitob tarixi bilan bogʻliq qaydlar yozib qoʻyilgan.

95b- betda uygʻur yozuvi bilan qoʻlyozmaning Hirotdan Toʻqatga, u yerdan esa Shayxzoda Abdurrazzoq baxshi uchun 879- (= milodiy 1474-) yili Istanbulga keltirilgani yozilgan: *Tarixqa sekiz yüz yetmiş toquzda yılan yıl bu Qutad̡yū bilig kitābnī Abdu(r)razzāq Šayxzāda baxšī üçün İstambulda Toqattin Fanari oylī Qāzi 'Alī bitig yibarip keltürdilər. Mubārak bolsun, davlat kelsün, mehnat ketsün* (Tarix sakkiz yuz yetmish toʻqqizda, ilon yili, bu «Qutadgʻu bilig» kitobini Abdurrazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari oʻgʻli Qozi Aliy xat yuborib, Toʻqatdan keltirdilar. Muborak boʻlsin, davlat kelsin, zahmat ketsin).

95b- betga uygʻur xati bilan Abdurrazzoq baxshining beshta toʻrtligi bitilgan. Shundan soʻng qoʻlyozma kitobning qoʻldan qoʻlga oʻtib yurganidan belgi beruvchi yana bir qaydga koʻzimiz tushadi. Unda kitob Mulla Hayriddinning jome masjidi yonida Naʼlbant Hamza otli kishidan sotib olingani taʼkidlanadi: *Naʼlbant Hamzadīn satun alduq Mulla Hayradinnīñ jumʼa masjidiniñ yanida. Ašna Xoja Xāji dallāl.*

Eʼtiborni toʻrtadigan yeri shundaki, uchala nusxaning matni bir-biriga toʻla mos kelmaydi. Qoʻlyozmalarning biri boshqasidan koʻchirilgan emas. Ularga butunlay boshqa-boshqa nusxalar asos boʻlgan. Shu oʻrinda mavjud qoʻlyozmalarning qay biri eskiroq nusxadan koʻchirilgan, degan soʻroqning tugʻiluv tabiiy. Bu borada, uygʻur yozuvli Hirot qoʻlyozmasi, keyingi davrga tegishli esa-da, boshqalariga qaraganda eskiroq nusxadan koʻchirilganini taʼkidlamoq kerak. Chamasi, unga asos boʻlgan qoʻlyozma ham uygʻur xatida boʻlgan.

«Qutadgʻu bilig» qoʻlyozmalari oʻrtasidagi farqlar bilan bogʻliq oʻrnaklarga eʼtibor qiling. Asarning arab yozuvli Namangan nusxasida boʻshlangʻich anʼanaviy toʻrtta bob – hamd, naʼt, sahobalar madhi va Tavgʻach Bugʻraxonga bagʻishlangan boblarning sarlavhalari arabcha atalgan, keyingi boblarning sarlavhalari esa turkiyda.

Muhimi shundaki, uygʻur yozuvli Hirot nusxasida ushbu boblarning sarlavhalari fihrishta ham, matn orasida ham turkiydir. Jumladan, matn ichidagi sarlavhalar shunday: «*Tenri 'azza va jalla ögdüsin ayur*» – «Buyuk va qudratli Tangrining madhini aytadi» (QBH.5b,19); «*Yalawač 'alayhi-s-salam ögdüsin ayur*» – «Paygʻambar alayhi-s-salom madhini aytadi» (QBH.6b,2); «*Tört saḥābanıñ faḍilatın ayur*» – «Toʻrt sahobaning fazilatini aytadi» (QBH.7a.1); «*Yaruq yaz faşlın, uluy Buıraxan ögdüsin ayur*» – «Yorugʻ koʻklam faslini, ulugʻ Bugʻraxon madhini aytadi» (QBH.7a,16).

Asarning arab yozuvli Qohira nusxasida matn orasidagi boshlangʻich uch bob sarlavhasi arabcha, toʻrtinchi – Bugʻraxon oʻgʻdusi bobidan boshlab turkiy atalgan.

Koʻrinadiki, boshda (muallif nixsasida) bob sarlavhalarining bari faqat turkiyda edi. Keyinchalik, asar muqaddimasidagi boshlangʻich boblarning sarlavhalari sharq-islom kitobat anʼanasi yoʻlini tutib, arabchaga oʻgirilgan.

Qiyos uchun boshqa bir oʻrnak. Namangan nusxasining boblar mundarijasida oltinchi bob sarlavhasi «*Yanluq ayırliqın ayur*» – «Insonning qadr-qiymatini aytadi» (QBN.2b.6), asar ichida esa «*Yanluq ayırliqın tanurlayur bilig birlä*» – «Insonning qadri bilim bilan belgilanadi» deb berilgan (QBN.12b.6).

Qohira nusxasining boblar mundarijasida ushbu sarlavha «*Adam oylı ayırliqı bilig birlä erdükin (ayur)*» – «Odam oʻgʻlining qadr-qiymati bilim birla ekanini aytadi» deb berilgan (QBQ.4b.7).

Hirot nusxasining boblar mundarijasida bu sarlavha «*Yanluq oylı-qızı ayırliqı uquş, bilig erdükin ayur*» – «Kishi oʻgʻil-qizining qadr-qiymati uquv, bilimda ekanini aytadi» (QBH.4b,10), asar ichida esa «*Yalınıyuc oylanı ayırliyi bilig, uquş birlä erdükin ayur*» – «Kishi oʻgʻlonining azizligʻi bilim, uquv birla belgilanuvini aytadi» deb berilgan (QBH.8b,17). Oralaridagi muhim farqi: Namangan nusxasida «inson, kishi» anglamidagi *yanluq* soʻzining oʻrnida Qohira nusxasida *Adam oylı*; Hirot nusxasida esa *yanluq oylı-qızı*, *yalınıyuc oylanı* soʻzlari kelgan; ular uygʻur yozuvli qoʻlyozmada turkiy soʻzlar bilan berilgan. Shularga koʻra, asarning uygʻur yozuvli Hirot qoʻlyozmasi qandaydir eskiroq nusxaga asoslanganini taxmin qilish mumkin.

Muallif nusxasining qanday yozuvda ekanligi bilan bogʻliq bir oʻrnak.

«Qutadgʻu bilig»ning beglikka sazovor kishi qanday boʻlmogʻi kerakligi haqidagi bobida begning sifati taʼriflanar ekan, qiziq bir bayt keltiriladi. Ushbu bayt asarning arab yozuvli Namangan va Qohira nusxalarida shunday kelgan:

*«Beg» atī «bilig» birlä bayliḡ turur,
«Bilig» «lām»i ketsä, «beg» atī qalur* (QBN.76a,6; QBQ.53a,13).

Mazmuni: «Beg» oti «bilig» bilan bogʻliqdir, / «Bilig» «lom»i ketsa, «beg» oti qoladi [yaʼni, «bilig» soʻzidan «lām» harfi ketsa, «beg» soʻzi qoladi].

Ushbu baytda muammo sanʼati ishlatilgan. Unda «bilig» va «beg» soʻzlarining arab xatidagi yozilishiga ishora qilinib, bu ikki soʻzning mohiyatan ham oʻzaro bogʻliqligʻi taʼkidlanmoqda.

Yanada mihimi, ushbu bayt olimlarni quyidagi mulohazaga olib kelgan: ularning fikricha, muallif asarni arab xatida bitgan, aks holda bunday badiiy sanʼat ishlatilmagan boʻlardi.

Aytish oʻrinliki, bu fikr arab yozuvli qoʻlyozmaga nisbatan toʻgʻri, lekin uygʻur yozuvli qoʻlyozmani inobatga olganda, bunday deyish qiyin. Sababi, ushbu bayt asarning uygʻur yozuvli nusxasida biroz bashqacha shaklda. Mana uning oʻqilishi:

*Beg atī bilig birlä bayliḡ turur,
Biligi bedüsä, beg atī qalur* (QBH.38a,11).

Shunga qarab, baytning maʼnosi ham oʻzgaradi:

«Begning oti [yaʼni nom qozonishi uning] bilimiga bogʻliqdir, / Bilimi buyuklashsa, begning oti (mangu) qoladi [yaʼni uning dovrugʻi olamga taraladi]».

Baytning bunday talqin qilinishi oʻzidan avvalgi va oʻzidan keyingi baytlarning mazmuniga ham uygʻun keladi.

Har qaysi holda ham yuqoridagi fikrda jon bor: Yusuf Xos Hojib oʻz asarini uygʻur xatida yozib, xonga tortiq qilgan. Keyinchalik, asarning kengroq yoyilishini koʻzda tutgan holda, arab yozuviga ham oʻgirilgan.

Yuqoridagi baytga kelsak, matn arab yozuviga oʻgirilayotgan chogʻda muammo sanʼati ishlatib ketilgan boʻlishi kerak.

«QUTADGʻU BILIG» NAMANGAN NUSXASINING OCHIQLAMASI

«Qutadgʻu bilig» Namangan qoʻlyozmasining koʻchirilgan yili va yeri ham, kotibi ham aniq emas. Masnaviyning nasx xatida koʻchirilgani, sarlavhalarning esa sulsda bitilgani va matnning grafik xususiyatlarini koʻzda turgan holda, qoʻlyozma XIII yuzyilda koʻchirilgan deya taxmin qilinadi.

Qoʻlyozmaning saqlanganlik holati va texnik belgilari

«Qutadgʻu bilig»ning Namangan nusxasini ilk oʻrta asrlar Oʻrta Osiyo kitobat va xattotlik sanʼatining ajoyib namunasi desa boʻladi. Muqovasi oʻziniki. Dastlabki jildlangan holida turibdi. Matn novvatrang Samarqand qogʻoziga bitilgan.

Qoʻlyozma jami 225 varaqli. Kitob varaqlarining ketma-ketligi uch marta qora qalamda raqamlab chiqilgan: birinchisi, har bir betning yuqorisiga arab raqamlarida; ikkinchisi, har bir betning ostiga hozirdi raqamlarda (bu tartib boʻyicha asar matni 445- betda tugaydi); uchunchisi, har bir varaqning oʻng yuzi yuqori burchagiga hozirgi raqamlar bilan belgilab chiqilgan (Biz kitob varaqlarini soʻnggi raqamlar boʻyicha (*a, b*) belgilab boramiz).

Qoʻlyozmaning saqlanganlik holatini yaxshi deb boʻlmaydi - uzoq yuzyillarning taʼsiri sezilib turadi: kitob ancha uringan; varaqlarning chetlari titila boshlabdi; orada qogʻoz bilan yelimlab chiqilgan varaqlari ham bor; dogʻ tushgan betlari ham koʻp.

Yana 87b – 88a; 103b – 104a; 111b – 112a; 130a – 131a- betlar namiqib, xatining rangi ancha ketib qolgan. Yoki 132b – 133a- betlar chirib, matni oʻchgan qatorlari bor.

Shunga qaramay, kitobning asosiy matni yaxshi saqlangan.

Qoʻlyozmaning 1a- varagʻida uning saqlanish raqami (№ 1809) qoʻyilgan. Undan quyiroqda fondning toʻrtburchak muhri urilib, uning ichiga ham qoʻlyozmaning saqlanish raqami (1809) yozilgan. Ayni muhrli belgi 2a- varaqning yon hoshiyasiga ham urilgan. 222b- sahifaning ostida, soʻnggi baytning yonginasiga ham kitobning saqlanish raqami (1809) qayd etilgan.

«Qutadgʻu bilig» asari qoʻlyozmaning 1b- varagʻidan boshlanib, 223b- varagʻida tugaydi. 224a,b- varagʻiga keyinchalik boshqa bir nasriy matn uzindisining 4 beti koʻndalangiga yozib qoʻyilgan. Qoʻlyozmaning soʻnggi 225- varagʻi boʻsh qolgani uchun soʻnggi betiga «Qutadgʻu bilig»ga bagʻishlangan maqolalar bilan bogʻliq qaydlar arab xatida yozib qoʻyilbdi.

Har sahifaga 15 qatorli (sarlavhali betlarda bundan ozroq) matn ikki ustunga olib yozilgan. Har qatorda bir bayt: avval bir satri, davomiga ikkinchi satri ulanib ketadi. Ayrim oʻrinlarda, sahifani toʻldirish uchun bir bayt ikki qatorga ham bitilgan. Matn boshdan oxir ikki ustunli qizil chiziqqa oʻrogʻliq.

Bob va boʻlimlarning sarlavhalari, masnaviyga kiritilgan toʻrtliklar ham qizil chiziqlar bilan ajratib ketilgan.

Matnning xat turlari

Koʻhna kitob ancha uringan boʻlsa-da, yetti yarim asrlik oʻzha salobat uning yozuvida, xat turi va uslubida hanuz saqlanib turibdi. Xattotning yuksak mahorat egasi ekanligi kitobda yorqin aks etgan. Qoʻlyozma martabali kimsaning buyurtmasi bilan maxsus koʻchirilgani aniq. Xati nafis va tartibli. Unda asosiy matn chiroyli nasxda bitilgan; sarlavhalar esa chiroyli sulsda; kecha yozilganday tiniq. Hatto, sahifani toʻldirish uchun, 93b,14-, 142b,14-, 167a,14- qatorlardagi baytlar ham yirik harflar bilan sulsda bitilgan.

Asosiy matn qorada, qoʻshimcha harfiy haraklarlar oz; sulsdagi sarlavhalar esa qora, qizil, koʻk, zarhal ranglarda bitilib, harfiy harakatlar bilan izchil taʼminlab borilgan.

Muhimi shundaki, boblarning sarlavhalarigina emas, asar qahramonlarining oʻzaro savol-javoblari ham (*Elig savāli Ögdülmişkā; Ögdülmiş javābi eligkā* singari) sarlavha shaklida ajratib berilgan; ular ham sulsda va turli ranglarda.

Yana oradagi toʻrtliklar ham zarhalda.

Poygir belgilari, aftidan, keyinchalik, qoʻlyozma fondga kelib tushgandan soʻng yozib chiqilgan koʻrinadi. U yuqoridagi matndan farqli oʻlaroq, siyoh rangda, kitob oxirlagan sari qizilda bitilgan; xat uslubi ham qoʻlyozma kotibining yozuvidan keskin ajralib turibdi.

Kitob qoʻldan-qoʻlga oʻtib yurgan chogʻlarda kitobga pisandsizlik qilingan. Jumladan, 64a-, 67a- betlardagi zarhalda bitilgan toʻrtliklar yozuvi ustidan qora bilan boʻyab chiqilgan. Yoki yana 136a, 146a, 157a, 158a, 184a- betlardagi sarlavhalar ustidan ham qora bilan boʻyab qoʻyilibdi.

Matnning yozuv xususiyati

Arab yozuvida bitilgan turkiy qoʻlyozmalar harflarning fonetik vazifasi, imlo xususiyatiga koʻra arabcha va forsha matnlardan keskin ajralib turadi. Turklar arab alifbosini oʻzlashtirganda, eski tajribalarini ishga solib, uni oʻz tillarining fonetik tizimiga moslashtirganlar. Arab alifbosi negizidagi eski turkiy

yozuv yangi xat turi edi. Yana turkiy qoʻlyozmalar yaratilgan va koʻchirilgan davriga koʻra ham bir-biridan farq qiladi: ilk oʻrta asrlarning qoʻlyozmalari keyingi davr qoʻlyozmalaridan farqli.

«Qutadgʻu bilig»ning arab yozuvli Namangan va Qohira qoʻlyozmalari oʻzining grafik va imlo xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Unlilar tizimini ifodalash uchun uchta harfdan foydalanilgan: *alif*, *vāv*, *yā*.

Bu oʻrinda *alif* harfi – [a], [ä], [e] tovushlarini; *vāv* harfi lablangan [o], [ö], [u], [ü] unlilarini; *yā* harfi esa [y] undoshidan tashqari [i], [i], [e] unlilarini anglatadi. Yana bu harflar arabch va forschadan oʻzlashgan soʻzlardagi choʻziq unlilarni ham bildiradi.

Turkiy qoʻlyozmalarining arabcha va forscha matnlardan farqlanuvchi belgilaridan yana biri, ularda unlilar yozuvda izchil ifoda etilgan. Buning sababi, turkiy xalqlar islomdan avvalgi kezlarda ishlatgan uygʻur yozuvida unlilar toʻliq ifodalangan. Ular arab xatini oʻzlashtirganlarida ham eski yozuvning ana shu prinsipini saqlab qoldilar.

Turkiy matnlarda undoshlarni ifodalovchi harflarning fonetik vazifalari ham oʻziga xos tarzda amal qiladi.

Qoʻlyozmalarda *kāf* (ك) harfi jarangsiz [k] va jarangli [g] undoshlarini ifodalaydi; oʻrniga qarab, u yoki bu tovush sifatida oqilaveradi. Shunday esada, Namangan nusxasida ora-orada jarangli [g] ni farqlash uchun *kāf* ning ustiga uch nuqta qoʻyib ketilgan (گ). Masalan: *belgölüg* (بلگولۇگ) – belgili, aniq (QBN.165a,8); *ülüg* (اولۇگ) – hissa, ulush (QBN.165b,11); *biliglig bögü* (بیلیگلیگ بۆگü) – bilimli dono (QBN.186a,13); *eg-* (اگ) – (yov boʻynini) *eg-* (QBN.197b,9); *yegü-kedgölüg* (یگو کدگولۇگ) – yegu-kiygulik (QBN.211b,14) soʻzlaridagi singari.

Qoʻlyozmada *elig* (یلیگ) – elig, hukmdor (QBN.197b,3); *silig* (سیلیگ) – muloyim (QBN.212b,12); *bilig* (بیلیگ) – bilim (QBN.211b,10) soʻzlarida ham *kāf* ning ustiga uch nuqta qoʻyilgan. Ana shu ishoralar «Qutadgʻu bilig»da *beg*, *bitig*, *bilig* singari soʻzlar [k] bilan emas, [g] bilan talaffuz qilinganiga dalil boʻla oladi.

Uch nuqta belgisi [ɣ] tovushini ifodalash uchun ham ishlatilgan: *yaših* (ياشيناڭ) – yoshing, umring (QBN.198b,2); *señä* (سەنڭا) – senga (QBN.208b,13) singari.

Muhimi shundaki, suls yozuvli sarlavhalarda harfiy ishoratlar izchil ishlatilgani uchun *kāf* ning ustiga ham uch nuqta qoʻyilgan. Masalan: *bilgä* (بیلگا) – dono (QBN.157a,3); *Ögdülmiş* (اوگدولمیش) – Oʻgdulmish (QBN.140b,7) singari.

Hatto joʻnalish qoʻshimchasi ingichka variantidagi *kāf* ning ustiga ham uch nuqta qoʻyilgan soʻzlar bor. Shuning uchun bu oʻrinda ushbu qoshimchani *-kā* emas, *-gā* deb oʻqish toʻgʻri boʻladi: *Ögdülmışgā* (اكدولمیشگا) – Oʻgdulmishga (134a,3); *beglärgā* (بكلارگا) – beglarga (QBN.146b,4) singari. Ushbu ishoratlar asar tilida joʻnalish qoʻshimchsining ingichka varianti *-kā* bilan birga *-gā* shaklida ham ishlatila boshlaganini koʻrsatadi. Bu narsa qoʻlyozmaning koʻchirilgan davri bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin.

Shuningdek, turkiy qoʻlyozmalarda ب harfi jarangli [b] va jarangsiz [p] tovushlarini bildiradi; oʻrniga qarab, u yoki bu tovush sifatida oʻqib ketilaveradi. Qoʻlyozmada ora-chora [p] ni ifodalash uchun پ harfidan ham foydalanilgan: *tapunmaq* (تپونماق) – xizmat qilmoq (QBN.146b,4).

«Qutadgʻu bilig» tilida tishora [δ] tovuchi ham bor. Yozuvda u ذ harfi bilan ifodalangan: *boḍun* (بودون) – xalq (QBN.13a,14); *eḍgü* (اذكو) – ezgu (QBN.13b,14); *beḍüg* (بذوك) – buyuk (QBN.17a,10); *bitip qoḍ* (بتيپ قوذ) – bitib qoʻy- (QBN.16b,5) soʻzlaridagi singari. Bu tovush [d] ga variant sifatida ishlatiladi (*d* ~ *δ*). Matnda <δ> soʻzlarning baʼzan <d> bilan yozilishi ham bunga dalildir.

Qoʻlyozmada [w] tovushi و yoki ف harflari bilan ifodalangan. Masalan: *sawčī* (سافچی) – paygʻambar (QBN.8b,1); *yalawač* (يلاقچ) – paygʻambar (QBN.9a,11); *yawuz* (يغوز) – yovuz (QBN.18b,7); *owutluγ* (اوغوتلوغ) – andishali (QBN.9a,1); *ewlik* (ايف ليک) – xotin (QBN.162a,9); *jaw* (جاف) – dovrugʻ (QBN.25b,4); *saw* (ساف) – xabar (QBN.25b,4) singari.

Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻati-t-turk» asarida ham [w] undoshi و yoki ف harflari bilan berilgan. Muhimi shundaki, ف bilan berilgan soʻzlarni asarning hozirgi zamon nashrlarida [f] deb oʻqimoqdalar. Biroq, shuni unutmaslik kerak, turkiy soʻzlarda [f] tovushi boʻlmagan, u oʻzlashgan soʻzlardagina keladi. Shundan kelib chiqib, turkiy soʻzlarda kelgan ف ni [f] emas, [w] deb oʻqilgani maʼqul. Bu fikrning toʻgʻriligini qoʻlyozmada bir soʻzning ikki xil yozilgani ham isbotlaydi: *aw* – «uy» (MK.27a) // *awut* – «uyat, andisha» (MK.268b) singari.

Arab yozuvli turkiy matnlarda *jīm* harfining vazifasi ham ikki xil, u [j] va [č] tovushlarini bildiradi; oʻrniga qarab, u yoki bu tovush sifatida oʻqilaveradi: *jafā qil* (جغا قيل) – (QBN.114b,7); *hājib* (حاجب) – hojib (QBN.25b,7); *čīyay* (جیغای) – kambagʻal (QBN.162a,2); *küč* (كوج) – kuch (QBN.20b,8); *keč qal* (کیچ قال) – kech qol- (QBN.26b,2); *til ač* (نیل اچ) – til och- (QBN.27b,1).

Ayrim oʻrinlardagina jarangsiz [č] ni ajratish uchun nuqtali چ harfidan ham foydalanilgan.

«Qutadgʻu bilig» tilida sirgʻaluvchi, murakkab artikulyatsiyali, Mahmud Koshgʻariy soʻzi bilan aytganda, «ikki maxraj orasidagi» [ž] tovushi ham bor. Bu tovush asarning arab yozuvli qoʻlyozmalarida ڙ harfi bilan ifodalangan. Masalan: *ažun* (اژون) – dunyo (QBN.16b,7); *täžiklär* (تازیكلار) – forslar (QBN.17a,11); *eriž* (اریژ) – farogʻat (QBN.22b,1) soʻzlaridagi singari.

Asar boblarining atalishi va baytlar soni

№	Boblarning sarlavhalari	Baytlar soni
I	Nasriy muqaddima (1b–2b,4).	
II	Fihrist-i abvab – Boblar mundarijasi (2b,5–7a).	
1	Allohga hamd (7b–8b,4).	32
2	Fi faḍāyili-n-nabī ʻalayhi-s-salām. – Paygʻambar alayhi-s-salom fazilatları borasida (8b,5–9a,6).	15
3	Fi faḍāyili aṣḥābi-n-nabī riḍvān Allahi ʻalayhim. – Paygʻambar sahobalarining, rizvon Allohim, fazllari borasida (9a,7–9b,7).	14
4	Li xani-l-ajalli-l-muẓaffari-l-muʾayyad, nāṣiru-l-ḥaqq va-d-dīn Ṭawṣaʿ uluṣ Buyra Qaraxan abā ʻAlī Ḥasan binni Arslanxan, raḥmatu-l-lahi ʻalayhim. – Muhtaram, muzaffar, madadkor, haqiqat va din tayanchi Tavḡʻach uluṣ Bugʻra Qaraxan abo Aliy Hasan binni Arslanxan, rahmatullahi alayhim, shaʻniga (9b,8–11b,9).	58
5	Yeti kavākib, on iki burūj. – Yetti sayyora va oʻn ikki burj (11b,10–12b,5).	24
6	Yanluq ayırliqin tanurlayur bilig birlä. – Insonning qadri bilim bilan belgilanadi (12b,6–13a,6).	14
7	Til erdāmin, asyīn, munlarin sözläyür. – Til fazilati, foydazarlarini soʻzlaydi (QBN.13a,7–14a,9).	31
8	Kitāb iḍisi öziṣä ʻuḍr ayur. – Kitob egasi oʻziga uzr aytadi (14a,10–15b,4).	38

9	Eḡgölärkä qatılmaq eḡgüsin ayur. – Ezgu (kishi)larga aralashish ezguliklarini aytadi (15b,5–17b,2).	56
10	Bilig, uquş aḡramın, asyın ayur. – Bilim, uquv farqini, foydasini aytadi (17b,3–19b,5).	61
11	Kitāb atī, tüzügin, awučʻalıqını ayur. – Kitobga ot qoʻyilishi va (oʻz) qariligini aytadi (19b,6–21a,10).	48
12	Söz başi. Küntuydı elig üzä. – Soʻz boshi. Kuntugʻdi elig toʻgʻrisida (21a,11–23a,12).	60
13	Aytoldi Küntuydı tapıña oyramışın ayur. – Oytoʻldi Kuntugʻdining xizmatiga kirishini aytadi (23a,13–27a,10).	126
14	Aytoldi eligkä körünmiş. – Oytoʻldining eligga koʻrinishi (27a,11–28b,6).	39
15	Aytoldi özi davlat erdükin ayur. – Oytoʻldi oʻzi davlat ekanini aytadi (28b,7–29b).	37
16	Bāb. Aytoldi eligkä davlat şifatinı körgitür. – Bob. Oytoʻldi eligga davlat sifatini koʻrsatadi (30a,1–33b,4).	107
17	Bāb. Küntuydı elig Aytoldiqa ʻadl şifatinı aytur. – Bob. Kuntugʻdi elig Oytoʻldiga adl sifatini aytadi (33b,5–34b,3).	27
18	Bāb. Küntuydı elig Aytoldiqa ʻadl şifati ne-teg erdükin ayur. – Bob. Kuntugʻdi elig Oytoʻldiga adl sifati qanday ekanini aytadi (34b,4–40b,9).	164
19	Bāb. Sözlämäk-mu eḡgüräk azu ya şük turmaq-mu eḡgüräkini aytur. – Bob. Soʻzlamogʻ yaxshiroqmi yoki soʻzlamay jim turmoq (yaxshiroqmi) ekanini aytadi (40b,10–44b,5).	90
20	Bāb. Qut qiwiliqın, davlat ersällikin bayān qılur. – Bob. Baxtning baqosizligi va davlatning vafosizligini bayon qiladi (44b,6–48b,4).	113
21	Bāb. Aytoldi oyli Ögdülmişkä pand bermişin ayur. – Bob. Oytoʻldi oʻgʻli Oʻgdulmishga pand berganini aytadi (48b,4–52b,13).	119
22	Aytoldi Ögdülmişkä ötälämişin ayur. – Oytoʻldi Oʻgdulmişga nasihat qilganini aytadi (52b,14–55a,4).	64

23	Aytoldi eligkä qumaru bitig qodmişin ayur. – Oytoʻldi eligga nasihatnoma yozib qoldirganini aytadi (55a,5–61b,10).	199
24	Elig xaqan Ögdülmişkä pand bermişin ayur. – Elig xoqon Oʻgdulmishga pand berganini aytadi (61b,12–63a,10).	43
25	Ögdülmiş eligkä tapuyqa kirmişin ayur. – Oʻgdulmişning elig xizmatiga kirganini aytadi (63a,11–74b,11).	318
26	Bāb. Beglikkä sazā bolʻu-teg beg nekü-teg keräkini ayur. – Bob. Beglikka loyiq beg qanday kishi boʻlishi kerakligini aytadi (74b,12–83b,9).	260
27	Bāb. Beglärkä vazir bolʻu nekü-teg er keräkini ayur. – Bob. Beglarga vazir boʻlgʻuchi qanday kishi boʻlmogʻi kerakligini aytadi (83b,10–86b,8).	86
28	Bāb. Ögdülmiş eligkä sü başlar isfahsālār nekü-teg keräkin ayur. – Bob. Oʻgdulmish eligga lashkarboshi, sipohsolor qanday boʻlishi kerakligini aytadi (86b,9–92a,11).	165
29	Bāb. Ögdülmiş eligkä uluy hajibluqqa nekü-teg er keräkin ayur. – Bob. Oʻgdulmish eligga ulugʻ hojibliqqa qanday kishi kerakligini aytadi (92a,12–95a).	91
30	Bāb. Ögdülmiş eligkä qapuy başlar er nekü-teg keräkin ayur. – Oʻgdulmish eligga darvozabonlar boshi qanday kishi boʻlmogʻi kerakligini aytadi (95b,1–97b,10).	69
31	Bāb. Ögdülmiş eligkä yalawač iðyuqa ne-teg er keräkin ayur. – Bob. Oʻgdulmish eligga elchi qilib yuborish uchun qanday kishi kerakligini aytadi (97b,11–100a,13).	76
32	Bāb. Ögdülmiş eligkä bitigçi-ilmıya nekü-teg keräkin ayur. – Oʻgdulmish eligga xat bituvchi kotib qanday (boʻlishi) kerakligini aytadi (100a,14–102b,10).	70
33	Bāb. Ögdülmiş eligkä ayıçı nekü-teg er keräkin ayur. – Bob. Oʻgdulmish eligga xazinachi qanday kishi (boʻlmogʻi) kerakligini aytadi (102b,11–105b,7).	85

34	Bāb. Ögdülmiş eligkä aş başçı xvān sālār nekü-teg kerākin aytur. – Bob. Oʻgdulmish eligga osh boshchi – xonsolor qanday boʻlishi kerakligini aytadi (105a,8–107b,5).	86
35	Bāb. Ögdülmiş eligkä iđišči baši nekü-teg kerākin ayur. – Bob. Oʻgdulmish eligga sharobdorlar boshligʻi qanday boʻlishi kerakligini aytadi (107b,6–110a,6).	74
36	Bāb. Ögdülmiş eligkä tapuyčılar haqi beglār üzä nekü-teg kerākin ayur. – Oʻgdulmish eligga xizmatchilarning beg zimmalaridagi haqi qanday (boʻlmogʻi) kerakligini aytadi (110a,7–118a,13).	230
37	Bāb. Küntuydi elig Ođyurmışqa bitig bitip iđmīşini aytur. – Bob. Elig Kuntugʻdi Oʻzgʻurmishga xat yozib yuborganini aytadi (118a,14–122b,14).	130
38	Bāb. Ozyurmış Ögdülmiş birlä munāzara qılmaqini ayur. – Oʻzgʻurmish Oʻgdulmish bilan munozara qilganini aytadi (123a,1–129b,15).	190
39	Ođyurmış dunyā ʻaybların ayur. – Oʻzyurmış dunyo ayblarini aytadi (130a,1–140b,6).	312
40	Ögdülmiş javābi elig pādšāhqa. – Oʻgdulmishning elig podshohga javobi (140b,6–141b,12).	33
41	Elig bitig iđmīši Ođyurmışqa. – Eligning Oʻzgʻurmishga maktub yuborishi (141b,13–144a,12).	71
42	Bāb. Ögdülmiş Ođgurmışqa ikinc munāzara qılmaqın ayur. – Bob. Oʻgdulmish Oʻzgʻurmish bilan ikkinchi (bor) munozara qilganini aytadi (144a,13–146b,3).	57
43	Beglārgä tapunmaq bu turur. – Beglarga xizmat qilmoq bulardan iboratdir (146b,4–150a,4).	118
44	Qapuydaqı erät birlä şuhbat sözi. – Saroydagi sipohlar bilan suhbat soʻzi (150b,5–156a,6).	160
45	Bāb. Ögdülmiş Ođgurmışqa qara ʻam bođunlar birlä qatılmaqni ögrätür. – Bob. Oʻgdulmish Oʻzgʻurmishga qora avom xalq bilan aralashmoqliqni oʻrgatadi (156a,7–156b,10).	16

46	ʻAlavīlar birlä qatılmaqnı ögrätür. – Alaviylar bilan aralashishni oʻrgatadi (156b,11–157a,2).	5
47	Bilgä ʻālimlar birlä qatılmaqnı ögrätür. – Dono olimlar bilan aralashishni oʻrgatadi (157a,3–157b,4).	15
48	Otačılar birlä qatılmaqnı ayur. – Tabiblar bilan aralashishni aytadi (157b,5–10).	5
49	Muʻazzimlar birlä qatılmaqnı ayur. – Azayimxonlar bilan aralashishni aytadi (157b,11–158a,3).	5
50	Tüş yoryučılar birlä qatılmaqnı ayur. – Tush taʻbir qiluvchilar bilan aralashishni aytadi (158a,4–14).	10
51	Yılduzčılar birlä qatılmaqnı ayur. – Yulduzchilar bilan aralashishni aytadi (158b,1–159a,3).	16
52	Şāʻirlar birlä qatılmaqnı ayur. – Shoirlar bilan aralashishni aytadi (159a,4–12).	8
53	Tarıyčılar birlä qatılmaqnı ögrätür. – Dehqonlar bilan aralashishni oʻrgatadi (159a,13–160a,5).	14
54	Satıyčılar birlä qatılmaqnı ayur. – Savdogarlar bilan (qanday) aralashmoqni aytadi (160a,6–160b,12).	20
55	İgdiščilär birlä qatılmaqnı ayur. – Chorvadorlar bilan (qanday) aralashmoqliqni aytadi (160b,13–161b,1).	17
56	Uzlar birlä qatılmaqnı ayur. – Hunarmandlar bilan (qanday) aralashmoqni aytadi (161b,2–162a,1).	13
57	Čıyaylar birlä qatılmaqnı ayur. – Kambagʻallar bilan (qanday) aralashmoqni aytadi (162a,2–8).	6
58	Ewlik nekü-teg almaqnı ayur. – Xotinning qanaqasini olmoqliqni aytadi (162a,9–163a,10).	29
59	Bāb. Oʻyl-qiz tuysa, anlarnı ne-teg igiđgüsini ayur. – Oʻyl-qiz tugʻulsa, ularni qanday tarbiyalashni aytadi (163a,11–164a,5).	23
60	Elig asraqı kim ersälärni eđgü tutmaqnı ayur. – Qoʻl ostidagi kimsalarni [xizmatchi va ishchilarni] ezgu tutmoqliqni aytadi (164a,6–165b,11).	46

61	Bāb. Ögdülmiş aşqa oqımaq, aşqa barmaq töräsin ögrätür. – Bob. Oʻgdulmish oshga [yaʻni mehmonga] chorlamoq, oshga bormoq qoidalarini oʻrgatadi (165b,12–168a,12).	71
62	Bāb. Ögdülmiş Ođyurmışqa aşqa oqımaq törüsin ögrätür. – Bob. Oʻgdulmiş Oʻzgʻurmishga oshga [ziyofatga] chorlamoq qoidasini oʻrgatadi (168a,13–169b,6).	36
63	Bāb. Ođyurmış Ögdülmiş[kä] dunyādın yüz ewürüp yariña tapı bolmaqın ayur. – Bob. Oʻzgʻurmish Oʻgdulmishga bu dunyodan yuz oʻgirib, u dunyoga moyil boʻlmoqliqni aytadi (169b,7–178a,15).	254
64	Bāb. Küntuydı elig Ođyurmışnı üçünç qata ündäyü idmişin (ayur). – Bob. Kuntugʻdi elig Oʻzgʻurmishni uchinchi bor undab chaqirganini aytadi (178b,1–182a,1).	95
65	Bāb. Ođyurmış Ögdülmiş tapa kelmişin aytur, vallalaʻam. – Bob. Oʻzgʻurmishning Ogdulmish sari kelganini aytadi, vallalaʻam (182a,2–6).	4
66	Bāb. Küntuydı Ođyurmış birlä körüşmişini ayur. – Bob. Kuntugʻdi Oʻzgʻurmish bilan koʻrishganini aytadi (182a,7–186a,1).	95
67	Bāb. Ođyurmış Küntuydı eliggä pand bermişin aytur. – Bob. Oʻzgʻurmish Kuntugʻdi eligga pand berganini aytadi (186a,2–197a,5).	329
68	Bāb. Ögdülmiş Küntuydı eligkä el etgü törü tüzgüsin ayur. – Bob. Oʻgdulmish Kuntugʻdi eligga elni taraqqiy ettirish qonunlar tuzishini aytadi (197a,6–202b,11).	163
69	Bāb. Ögdülmiş kečmiş tiriglikkä açip tavbaqa oyramışin ayur. – Bob. Oʻgdulmish oʻtgan tiriglikka achinib, tavbaga yuz tutganini aytadi (202b,12–205b,5).	80
70	Bāb. Ođyurmış Ögdülmiş söziñä qayra javāb qılmışin ayur. – Bob. Oʻzgʻurmish Oʻgdulmish soʻziga qaytara javob qilganini aytadi (205b,6–207a,4).	41
71	Bāb. Könilikkä könilik, kişilikkä kişilik qılmaqın aytur, vallam. – Bob. Toʻgʻriliqqa toʻgʻriliq, kishilikka kishilik qilmogʻini aytadi, vallam (207a,5–213b,10).	191

72	Bāb. Oδγurmīš iglig bolup, Ögdülmišni ündāmišin ayur. – Bob. Oʻzgʻurmish kasal boʻlib, Oʻgdulmishni chaqirganini aytadi (213b,11–215b,1).	40
73	Bāb. Ögdülmiš Oδγurmīšqa tūš yörügisin aytur. – Bob. Oʻgdulmish Oʻzgʻurmishga tush taʻbir qilganini aytadi (215b,2–216b,12).	39
74	Bāb. Oδγurmīš Ögdülmiškā tūš körmīšin ayur. – Oʻzgʻurmish Oʻgdulmishga tush koʻrganini aytadi (216b,13–217a,4).	5
75	Bāb. Ögdülmiš Oδγurmīš tūšinjā taʻbirin kerāki-teg ayur. – Bob. Oʻgdulmish Oʻzgʻurmishning tushiga taʻbirini keragidek aytadi (217a,5–217b,1).	10
76	Bāb. Ol-oq tūšni Oδγurmīš adīn türölüg yormaqīni ayur. – Bob. Oʻsha tushni Oʻzgʻurmish boshqacha taʻbir qilganini aytadi (217b,2–7).	5
77	Ögdülmiš Oδγurmīšqa tūš taʻbirin ayur, vallam. – Oʻgdulmish Oʻzgʻurmishga tush taʻbirini ayur, vallam (217b,8–219a,1).	36
78	Bāb. Oδγurmīš Ögdülmiškā pand bermīšini ayur. – Bob. Oʻzgʻurmish Oʻgdulmishga nasihat qilganini aytadi (219a,2–223b,15).	144

KITOBNING OTI VA DOVRUGʻI

Arab yozuvli Namangan nusxasida asarning oti قوتادغو بليک *Qutadγu bilig* (QBN.11a.13.2) // قوتادغو بليک *Qutadγu bilig* (QBN.19b.7.1) deb berilgan. Ushbu ot tarkibidagi *qut* soʻzi – «qut, baxt; davlat» maʼnosida; *-ad* // *-ad* – feʼl yasovchi; *-γu* – sifat-dosh qoʻshimchasi; *qutadγu* / *qutaδγu* – «qutlantiruvchi; baxtga eltuvchi» degani; *bilig* – «bilim; asar, kitob» anglamida. Shularga koʻra, asarning oti «Qut berguchi bilim» / «Baxtga eltuvchi kitob» maʼnolarini beradi.

«Qutadgʻu bilig»ning nasriy muqaddimasida oʻsha davr turkiy tilida, yaʼni adabiyotida bu kitobdan yaxshiroq asar yoʻqligi, Sharq ellarida u turli otlar bilan dovrugʻ qozongani taʼkidlanadi.

Oʻsha bitilganlarning mazmuni shunday: «Chinu Mochin olimlarining bari ittifoq boʻldilarki, Mashriq viloyatida, butun Turkiston ellarida Bugʻraxan tilincha, turk lugʻaticha hech kimsa ushbu kitobdan yaxshiroq tasnif qilgan

emas. Bu kitob qaysi podshohliqqa, qay bir iqlimgʻa yetgan boʻlsa, gʻoyat yaxshiligʻidan, nihoyatda ortiq jozibaliligidan oʻsha ellarning donishmandlari, olimlari qabul qilib, har biri turli ot-laqab qoʻydilar: chinligʻlar «*Adabu-l-mulūk*» («Maliklar odobi») ot berdilar; Mochin malikining nodimlari «*Ayinu-l-mamlakat*» («Mamlakatning koʻzi») atadilar; mashriqligʻlar «*Ziynatu-l-umarā*» («Olimlar ziynati») deb aytdilar; eronligʻlar «*Šāhnāma-yi türkî*» («Turkuy Shohnoma») dedilar, baʼzilari esa «*Pandnāma-yi mulūk*» («Maliklar pandnomasi») demishlar; turonligʻlar «*Qutad̲y̲u bilig*» («Qut berguchi bilim») deb aymishlar» (QBN.2a,4–7).

Ushbu maʼlumotlar oʻtmishda asar gʻoyat dovrugʻ qozongani, uning qoʻlyozmalari keng tarqalganiga dalil boʻla oladi. Shunga koʻra, asarning ilkin nusxasi xonga tortiq qilingan. Kitob butun mashriq, turku chin ellarida shuhrat qozongandan soʻng, uning yangi-yangi qoʻlyozmalari yuzaga kela boʻshladi. Kitobning dovrugʻi, turli otlar bilan atalgani toʻgʻrisidagi xabarlariga tayanib ayta olamizki, «Qutadgʻu bilig» oʻrta asrlarda turk dunyosidagina emas, butun sharq adabiyotida oʻta mashhur edi. Asar qoʻshni sharq ellarida ham qiziqib oʻqilgan. Hatto u boshqa tillarga ham tarjima qilingan boʻlishi mumkin.

Yana bir jihati, asar turkiy dunyoda «Qutadgʻu bilig» atalgan, boshqalari esa unga qoʻshni ellarda berilgan otlardir.

ASARNING TUZILISHI VA JANRI

«Qutadgʻu bilig» oʻn uch ming misradan ortiq.

Asar nasriy muqaddima bilan boshlangan. Unda tangriga hamd, yalavoch alayhi-s-salomga va uning toʻrt eshiga naʼt aytilib, soʻng kitobga ot berilishi va uning xonga tortiq qilingani, asar xonga maʼqul tushib, uning muallifini yuksak lavozimga qoʻygani, asarda qatnashuvchi ramziy qahramonlar, ular oʻrtasida savol va javob, munozara borajagi toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

Nasriy muqaddimadan keyin 77 baytli sheʼriy muqaddima keladi. Unda ham nasriy muqaddimada aytilganlar, lekin endi sheʼriy yoʻl bilan bayon qilinadi.

Mazmuni va bayon uslubiga qaraganda, nasriy va sheʼriy muqaddimalar, asarga keyinchalik, uning ikkinchi variantida kiritilgan.

Tagʻin bir jihati, nasriy muqaddima kim tarafidan bitilgani olimlar oʻrtasida toʻrtishuvga olib kelgan. Sababi, asar muallifi, uning Koshgʻarda bitilib, Tavgʻach Bugʻraxonga tortiq qilingani toʻgʻrisidagi xabarlar shoirning emas,

uning oʻzga kimsa tilidan bitilgani bilinib turadi; gaplarning kesimi ham shunga boʻysungan: *Tawṣāḥxan üskingä kikürmiş* (Tavgʻachxon dargohiga keltiribdi), *atī çawī yazılmış* (dovrugʻi yoyilibdi) singari.

Biroq sheʼriy muqaddima haqida bunday oʻyga bormaslik kerak. U muallifning oʻz tilidan bitilganini quyidagi bayt uslubidan ham yengil ilgʻab olish mumkin:

*Bu türkçä qoşuyar tüzättim seṇä,
Oqirda unütma, duʼā qıl meṇä.*

«Senga bu turkcha qoʻshiqlarni tartib berdim, / Oʻqirda unutma, mening haqimga duo qil» (QBQ.4a,15).

Sheʼriy muqaddima ham asarning toʻldirilgan ikkinchi variantiga kiritilgan. Bu oʻrnaklarning bari muallifning koʻzi tirikligidayoq, asar bir nechta variantga ega boʻlganini dalillaydi.

Sheʼriy muqaddimadan keyin boblar mundarijasi (fihristi abvab) beriladi. Unda asar boblarining otlari ketma-ketlikda keltirilgan. Biroq, mundarijada berilgan bob sarlavhalarining soni asarning ichida kelgan sarlavhalar sonidan farq qiladi. Tagʻin asar nusxalari orasidagi matniy farq ham ancha. Masalan, Hirot qoʻlyozmasi mundarijasida 73 ta bob oti keltirilgan; Namangan qoʻlyozmasida – 68 ta; Qohira nusxasida esa 72 tadir.

Olimlar «Qutadgʻu bilig»dagi boblar sonini 73 ta deb koʻrsatganlar. Biroq, mavjud qoʻlyozma nusxalarni oʻzaro chogʻishtirib, asarning yigʻma matni tuzilgedek boʻlsa, boblar soni 75 taga chiqadi.

Asarning boshdagi oʻn bitta bobi debocha. Arab yozuvli Qohira qoʻlyozmasining fihristida (QBQ.4b) ular shunday atalgan:

Täṇri ʼazza va jallanīṇ tawḥīdīn aytur. – «Ulugʻ va qudratli Tangrining tavhidini aytadi».

Yalawačīmiz, ʼalayhi-s-salam, faḍlīn ayur. – «Yalavochimiz alayhi-s-salomning fazilatini aytadi».

Şahābalarīṇ, ʼalayhi-s-salam, faḍlīn ayur. – «Sahobalarning, alayhi-s-salom, fazilatlarini aytadi».

Yaz faḍlīnī, Buyraxan ögdüsini ayur. – «Koʻklam fazilatini, Bugʻraxon madhini aytadi».

Yeti kavākib, on iki yulduznī ayur. – «Yeti kavokib, oʻn ikki yulduzni aytadi».

Ādam oyli ayirliqī bilig birlā erdükin (ayur). – «Odam bolasining qadri bilim bilan belgilanajagini aytadi».

Til erdāmin, asīyīn, yasīn ayur. – «Tilning fazilati, foydalari va ziyonini aytadi».

Kitāb idisi öz 'uḍrīnī ayur. – «Kitob muallifi oʻz uzrini aytadi».

Edgü öt-sawnī sözlāyür. – «Ezgu oʻgitlarni soʻzlaydi».

Bilig, uquş, 'ilm erdāmini ayur. – «Bilim, uqush va ilmning fazilatini aytadi».

Kitāb atī, yörügin, awučyaliqnī ayur. – «Kitobning oti, yoʻrigʻi hamda (oʻzining) qariligini aytadi».

Oʻn ikkinchi bobdan boshlab bevosita voqealar bayoniga koʻchiladi. Shuning uchun ham ayni bob asarda *söz başı* deb atalgan. U Kuntugʻdi elig, yaʼni adl sifatlarining taʼrifi bilan boshlanadi. Mana oʻsha bobning sarlavhasi:

Söz başı. Küntuydī elig 'adl şifāti(nī ayur). – «Kuntugdi elig adl sifatlarini aytadi».

Masnaviyning soʻnggi uch bobi xotimadir. Qohira qoʻlyozmasining fihristida (QBQ.8b) xotima boblari shunday atalgan:

Yūsūf čilbaşı yigitlikkā ökünüp, awučyaliynī ayur. – «Yusuf chilboshi yigitlikka achinib, (oʻz) qariligini aytadi».

Ödlāk artaqīnī, dostlar jafāsīnī ayur. – «Zamona vafosizligi, dostlarning jafosini aytadi».

Kitāb idisi özinkā pand berip, öz 'uḍrīn qulur. – «Kitob muallifi oʻziga pand berib, oʻz uzrini tilaydi».

«Qutadgʻu bilig» – masnaviyda yozilgan asar; qofiyasi *a-a, b-b, c-c* tizimidadir. Klassik adabiyotda voqeaband asarlar uchun sheʼrning ana shu turi tanlangan va tizimidan kelib chiqib, oʻsha davr adabiyotshunosligida ana shunday asarlarni *masnaviy* deb yuritilgan. Biz ham asarni ana shunday atasak, toʻgʻri boʻladi.

Vazni aruzning mutaqorib bahrida. Shu oʻrinda urgʻulash kerak, turkiy adabiyotga aruzni ilkin olib kirgan Yusuf Xos Hojib boʻladi.

«Qutadgʻu bilig»ning debochasidagi – Tangriga hamd, Muhammad alayhi-s-salom va uning toʻrt eshiga bagʻishlangan naʼtlar, koʻklam fasli va Tavgʻach Bugʻraxonga atalgan hamda yetti yulduz va oʻn ikki burjga bagʻishlangan boblar qasidalaridir.

Tagʻin bir jihati, asar davomida, oʻrni-oʻrni bilan, toʻrtliklar keltirilgan. Yusuf Xos Hojib muayyan masala toʻgʻrisida bahs etar ekan, soʻzining oxirida *Maşal keldi türkčä muḡar meñzätür* (Bunga oʻxshash turkcha maqol bor), *Eşitkil nekü ter böğü bilgü beg* (Bilagʻon, dono beg nima degan, eshitgin),

Nekü ter eşit bu aẓun tutmîş er (Jahongir kishi nima deydi, eshitgin), *Nekü ter eşit emdi bilgi teñiz* (Bilimi dengiz kishi nima deydi, eshit) singari taʼkidlar bilan bir toʻrtlik keltiradi ba aytilayotgan fikri shu oʻgit bilan yakun topadi. Ushbu toʻrtliklar xalq ogʻzaki ijodidan saylab olingan maqollar, sharq mutafakkirlarining oʻgitlari boʻlib, asar muallifi ularni sheʼrga solgan. Shoir ularni oʻz soʻzlariga dalil sifatida keltirgan.

Asarning nasriy muqaddimasida bu kitob «Chin donishmandlarining masallari bilan yaratilgan, Mochin donishmandlarining ashʼorlari bilan tartib berilgan» (*Čīn ḥakīmīlarīnīñ amsallārī birlā yaramīš, Māčīn ḥakīmīlarīnīñ ašʼārlārī birlā ārasta qīlmīš*) deya taʼriflanganda (QBN.1b,9–11) masnaviyga kiritilgan qadimgi turkiy maqollar va sharq donoligining ana shu hikmatlar xazinasi koʻzda tutilgan edi.

Toʻrtliklar shaklidagi ushbu oʻgitlarni kitob egasi *maşal*, *bayt*, *söz*, *biliglig sözi*, *şāʼir sözi*, *öglüg sözi* degan istiloh va sifatlar bilan ataydi (jumladan, *maşal*, *bayt*, *söz* – adabiyotshunoslik atamaları; *biliglig sözi*, *şāʼir sözi*, *öglüg sözi* birikmalari esa ularning tasviriy ifodalaridir; bu narsaa «maqol»ni «otalar soʻzi» deganday gap).

Ushbu naqol va hikmatlarni aytib ketgan kishilar ham maʼlum; ular koʻpni koʻrgan, hayotning achchiq-chuchugini totgan, oʻtmishda yashab oʻtgan tajribali donishmandlardir. Yusuf Xos Hojib, fikr magʻizi bilan bogʻliq ravishda, ularni *sīnamīš kīši* (sinagan kishi), *sīnamīš qarī* (sinagan qariya), *kösāmiš kīši* (kuzatgan kishi), *saqīnuq kīši* (fikr-mulohazali kishi), *saqīnuq uduy* (mulohazali hushyor), *qīlqī silig* (feʼli muloyim), *aẓun tutmīš er* (dunyoni boshqargan kishi), *özin qīsyan er* (oʻzini tiygan, qanoatli kishi), *İla atlıyī* (Ila sardori), *aziqlīy kür er* (oziqli jasur er), *atīqmīš yayīčī* (dovrugʻ qozongan jangchi), *şeʼr ayyučī* (sheʼr aytuvchi), *tažik bilgāsi* (fors donishmandi), *bayīrsaq qadaş* (mehrbon doʻst), *el-kend begi* (mamlakat hukmdori) singari sifatlar bilan tilga oladi. Asar egasining urgʻulashicha, ushbu hikmatlarni oʻsha bilgalar aytib ketgan.

Asarning Hirot va Qohira nusxalarida ushbu tortliklar *şeʼr* degan sarlavhachalar bilan ajratib ketilgan. Namangan nusxasida esa ular zarhaldan bitilib, tevarakdan jadvalga orab qoyilibdi.

Toʻrtliklarning qofiyalanishi *a-a-a-a* yoki *a-a-b-a* shakllarida boʻlib, ruboiyga yaqin turadi. Masalan, baxtning bebaqoligi, davlatning bavafoligi xususida soʻz yuritilgan bobda shunday toʻrtlik bor (qofiyasi: *a-a-a-a*):

*Eđi yaqşī aymīš biliglig sözi,
Bu bilgā sözi-ol biligsiz közi:*

*İnigli aʻyar-ol, aʻyīlī inār,
Yaruyli tūnār-ol, yuriyli tīnar.*

*Ne-kim işlār ersä tūgāli köδār,
Tūgāgli tūgāsä, inişdä inār.*

«Bilimlining soʻzi bu toʻgʻrida juda yaxshi aytilibdi, / Bilimlining soʻzi bilimsiz uchun koʻzdir:

Yiqilgan (kishi) koʻtariladi, koʻtarilgan inadi, / Yorishgan qorongʻulashadi, yurgan tinadi.

Nimaiki ish qilinsa, barini ehtiyot qil, / Tugaydigan (narsa) tugasa, yuz tuban ketadi» (QBN.44b.10–12).

Yoki boshqa bir oʻrnak (qofiyasi: *a-a-b-a*):

*Muʻjar meʻnzār emdi bu baytiʻy oʻqī,
Oʻqīsa aʻça bergā maʻni taqī:*

*Qamuyda qatīʻyraq ölüm-ol firāq,
Firāqīn tōkār yaʻš körügli qaraq.*

*Tiriglā firāqqa vişāl bar umīnč,
Ölügli vişāldīn sezigsiz yīraq.*

«Endu bunga oʻxshagan ushbu baytni oʻqi, / Oʻqisang, maʼnosi tagʻin ochilaveradi:

Hammadan qattiqroq firoq – bu oʻlimdir, / Koʻruvchi qaroqlar firoq bilan yosh toʻkadi.

Tiriklikda firoqqa visol umidi bor, / Oʻlgan (kishi esa) visoldan, shubhasiz, yiroqdir» (QBN.223a.6–8).

ASARNING MAZMUNI VA YOʻRIGʻI

«Qutadgʻu bilig»ning gʻoyasi toʻrt asosga qurilgan:

Birinchisi – *ʻAdl* (عدل) – Adl (QBQ.2a,1); *könilik*, yaʼni «toʻgʻrilik» timsoli; asarda *Küntuydī elig* boʻlib keladi.

Ikkinchisi – *Davlat* (دولت) – Davlat (QBQ.2a,1); *qut* va *iqbāl* timsoli; asarda *Aytoldī vazīr* boʻlib keladi.

Uchinchisi – 'Aql (عقل) – Aql (QBQ.2a,2; *xirad* («aql») va *uluyluq* («ulugʻliq») timsoli; asarda *Ögdülmiş*, yaʼni vazirning oʻgʻli boʻlib keladi.

Toʻrtinchisi – *Qanāʻat* (قناعت) – Qanoat (QBQ.2a,2); *ʻāfiyat* va *qanāʻat* timsoli; asarda *Ođyurmış*, yaʼni vazirning qarindoshi boʻlib keladi.

«Qutadgʻu bilig»ning syujeti uncha murakkab emas. Unda, asosan, yuqorida otlari tilga olingan toʻrt nafar qahramon qatnashadi; ular orasida savol-javob, munozara kechadi. Yusuf Xos Hojib ana shu qahramonlarning savol-javobi, suhbatlari orqali oʻzining ilgʻor falsafiy qarashlarini, jamiyatni adolat bilan boshqarish haqidagi fikrlarini bayon etadi.

«Qutadgʻu bilig»da ijodkorning odob-axloq, oʻgʻil-qiz tarbiyasi, halollik, chin insoniylik, kishining ulugʻ hislatlari, maʼnaviy dunyosi, komil inson haqidagi teran falsafiy qarashlari sheʼriy tilda bayon etilgan. Ulugʻ mutafakkir falsafasi oʻrta asrlar Sharq falsafiy qarashlarining choʻqqisida turadi.

«Qutadgʻu bilig» – baxtu saodat kitobi. Asarni oʻqib, ibrat olgan, undagi koʻrsatmalarga amal qilgan kishilarga saodat eshiklari ochiladi. Bu xususda adib yozadi:

*Kitāb atī urdum «Qutad̡u bilig»,
Qutad̡su, oq̡y̡liqa tutsu elig.*

«Kitobga «Qutadgʻu bilig» deb ot qoʻydim, / Baxtga eltsin, oʻqigan kishining qoʻlidan tutsin» (QBN.19b,7).

Asarda jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvi masalalari, barcha amaldorlarning burch va masʼuliyati, boshqaruv tizimida qonun va adolatning ustuvorligi, huquhiy masalalarga ham yetakchi urgʻu berilgan. Shuning uchun ham kitob Qoraxoniylar davlatining Nizomi darajasiga erishdi.

Yusuf Xos Hojib kishilik maʼnaviyatiga birinchilardan boʻlib *tügäl er* («komil inson») tushunchasini olib kirdi va uning maʼnaviy-axloqiy, insoniy oʻlchovlarini ishlab chiqdi. Uningcha, tugal erda ikki narsa jam boʻlmogʻi kerak: biri – bilim; ikkinchisi – uqush (zakovat). Ana shu sifatlari bilan kishi tugallikka erishadi:

*Bu ikki biriksä, bolur er tügäl,
Tügäl er azunuy tamam yer tügäl.*

«Bu ikkisi biriksa, kishi tugal boʻladi, / Tugal er olamni tugal qoʻlga kiritadi» (QBN.15a,15).

«Qutadgʻu bilig» – davlat va jamiyat boshqaruvining yoʻl-yoʻriqlarini jamlagan asar. Unda davlat boshqaruvida qay masalalarga urgʻu qaratilmogʻi, davlatni tinch va mustahkam saqlamoq uchun qanday yoʻl tutilmogʻi xususida yaxshi fikrlar berilgan. Shunga bir misol keltiramiz.

Kuntugʻdi elig kunlarning birida vazir Oytoʻldini qoshiga chorladi. Koʻrsa, Kuntugʻdi elig uch oyoqli kursida oʻtiribdi. Qoʻlida katta bir pichoq, soʻlida uragʻun [dori], oʻng yogʻida esa shakar [sharob]. Uning bu holati asarda shunday taʼriflanadi:

*Kümüš kürsi urmış üzä olturur;
Bu kürsi adaqı üç adrı turur.*

*Bedüg bir pičäkig eligdä tutar;
Solindın urayun, oñindın şakar.*

«Kumush kursi qoʻyib, ustida oʻtiribdi, / Bu kursining oyogʻi uch ayrili edi.
Qoʻlida katta bir pichoq tutgan, / Soʻlida uragʻun, oʻngida shakar»
(QBN.33b,12–13).

Oytoʻldi undan nima uchun uch oyoqli kursida oʻtirganini soʻraganda, elig buning maʼnosini shunday tushuntiradi:

*Qamuy üç adaqlıy emitmäs bolur;
Üčägü turur tüz, qamıtmas bolur.*

*Qalī üç adaqta emitsä biri,
İkisi qamıtar, üçär ol arı.*

«Hamma uch oyoqli narsa ogʻmaydigan boʻladi, / Uchovi toʻgʻri turadi, yiqilmas boʻladi.

Agar uch oyoqdan birortasi ogʻgʻudek boʻlsa, / Qolgan ikkisi ham ogʻadi, kursi yiqiladi» (QBN.35a,1–2).

Hatto uning oyoqlari toʻrtta boʻlganda ham, toʻrtinchisi ortiqcha, baribir u egri boʻladi:

*Qamuy üç adaqlıy köni tüz turur;
Qalī bolsa tört, kör, bir egri bolur.*

«Hamma uch oyoqli narsa toʻgʻri turadi, / Agar toʻrtta boʻlsa, koʻrgin, ularning biri egri boʻladi» (QBN.35a,3).

Buning falsafiy yechimi shunga taqaladi:

*Qayu tüz emitsä, turumas, tüšär,
Qayu tüz köni bolsa, tüšmäs, serär.*

«Qay bir toʻgʻri narsa ogʻsa, u yashamaydi, yiqiladi. / Qay bir narsa toʻgʻri boʻlsa, u yiqilmaydi, barqaror turadi» (QBN.35a,6).

Oytoʻldi nima uchun uning qoʻlida pichoq, bir yonida uragʻun, ikkinchi yonida shakar turganligini soʻraganda, elig buni davlat boshqaruvidagi qattiqqoʻllikka, adolatning yuzaga chiqishi uchun hech narsadan tap tortmaslikka bogʻlaydi. «Pichoqday keskirman, hayotda zulm koʻrgan kishilarga shakar tutib, ularni rozi qilaman, zolimlarga uragʻun tutaman», – deya javob qaytaradi.

Buning bilan Yusuf Xos Hojib uch narsaga ishora etgan: «adolat» (*könilik*), «bilim» (*bilig*) va «aql» (*ög*). Uning qarashicha, mana shularning uchovi davlat va jamiyat boshqaruvining magʻizini tashkil etadi. Agar ularning biriga amal qilinmasa, davlat zil ketadi, ogʻadi, degan koʻzqarashni ilgari suradi. Asar qahramoni Kuntugʻdi elig uch oyoqli kursida oʻtirishining boisi ham shunda.

Yusuf Xos Hojib davlat va jamiyat boshqaruvida adolatni bosh oʻringa qoʻyadi. Uning uqtirishicha, toʻgʻrilik [adolat] oldida hamma barobar. Kuntugʻdi elig tilidan buni shunday taʼriflaydi:

*Könilik üzälä kesär-men işig,
Adïrmas-mä begsig ya qulsïy kişig.*

«Ishni toʻgʻrilik [yaʼni adolat] yuzasidan hal qilaman, / Begsifat va qulsifat kishini ayirib oʻtirmayman» (QBN.35a,8).

Kuntugʻdi soʻzida davom etib, deydi:

*Keräk oylum ersä, yïraq ya yayuq,
Keräk barqïn ersä, kečigli qonuq.*

*Törüdä ikigü meñä bir sanï,
Kesärdä adïn bulmayay ol meni.*

«Kerak oʻgʻlim boʻlsin, kerak yiroq yoki yaqin kishim boʻlsin, / Kerak chaqmoq yangligʻ oʻtkinchi mehmon boʻlsin.

Adolat borasida har ikkovi men uchun birdek, / Hukm chiqarishda ular meni oʻzgacha koʻrmaydi» (QBN.35b,1–2).

ALLOHNING GOʻZAL ISMLARI

Eski turkiy tilda islomiy atamalar tizimi puxta ishlab chiqilgan va bu soʻzlar yozma yodgorliklarda yaxshi berilgan. Turkiy tilda islomiy atamalar tizimining yuzaga kelishida adib va olimlar, tarjimonlarning xizmati ulugʻdir. Bu sohada Yusuf Xos Hojib alohida oʻringa ega. Uning asarida Allohning goʻzal ismlarini anglatuvchi atamalarning butun bir tizimi qoʻllangan.

«Qutadgʻu bilig»da ishlatilgan atamalar.

Asarda *Allāh* soʻzi faqat bir oʻrinda – arabiy basmalada kelgan. Matn davomida muallif *tāhri*, *bayat*, *edi* (yoki *eḍi*), *rabb* soʻzlarini qoʻllaydi va bularning bari Allohni anglatadi.

Muhimi, bu soʻzlar tilga olinganda sifatlari bilan birga beriladi. Yusuf Xos Hojib *bayat* soʻzini *erklig bayat* («erkli, qodir xudo»), *etigli bayat* («yashnatuvchi xudo»), *uyan*, *bir bayat* («qodir va vohid xudo»); *erklig*, *uyan*, *meñü*, *munşuz bayat* («erkli, qodir, mangu, mungsiz xudo») shakllarida; *tāhri* soʻzini *uyan tāhri* («qodir tangri»), *tāhri ʻazza va jall(a)* («eng aziz va ulugʻ tangri»); *eḍi* soʻzini esa *törütkün eḍi* («yaratgan ega»), *igidgän eḍi* («parvarishlagan ega»), *kečürgän eḍi* («rahmli, kechiruvchi ega»), *munşuz eḍi* («mungsiz ega»), *bayırsaq eḍi* («mehribon ega») shakllarida qoʻllagan.

Ushbu atamalar asar qahramonlari tilidan ham ishlatiladi. Jumladan, *eḍi* soʻzi asar qahramonlari tilidan *bayırsaq eḍim* («mehribon egam»), *inanyu eḍim* («inonadigan egam»), *qatıyliq yerindä sıyınıy eḍim* («ogʻirlik paytlarida sigʻinadigan egam») deya taʼrif etilgan (QBN.113b,1). Allohning birligi *senındä adın yoq sıyınıy eḍim* – («sendan oʻzga sigʻinadigan egam yoqq») singari taʼriflar bilan berilgan (QBN.185b,8).

Asarda Allohning goʻzal ismlari bilan bir qatorda uning taʼriglari, moʻjizoti va yaratgan narsalari ham tilga olingan. Bularni bir-biridan farqlash kerak.

Allohning goʻzal ismlari:

Til tarixiga Allohning goʻzal ismlarini ham *at* deyilgan. Masalan, baytda shunday kelgan:

*Ey erklig, uyan, mänü, muhsuz bayat,
Yaramas senindin adinqa bu at.*

«Ey erkli, qodir, mangu, mungsiz xudo, / Sendan oʻzgaga bu ot (yaʼni sifatlar) yarashmaydi» (QBN.7b.6).

«Qutadgʻu bilig»da ishlatilgan Allohning goʻzal ismlari orasida *zuljalal*, *ʼazza va jall(a)* («eng aziz va ulugʻ»), *qādir kamāl* («qodir kamol»), *yafūr* («gʻofur»), *xāliq* («xoliq») singari arab tilidan oʻzlashgan atamalar ham bor. Muhimi shundaki, Yusuf Xos Hojib goʻzal ismlarning koʻpini turkiyda bergan. Ular shunday ataladi: *uyan* («qodir»), *bir* («vohid»), *uluyluy edisi* («ulugʻliq sohibi»), *yer-kök edisi* («Yer va koʻkning egasi»), *erklig* («erkli, qodir»), *yaratqan* («yaratgan»), *törütkün* («yaratgan»), *igidgän* («parvarishlagan»), *kečürgän* («rahmli, kechiruvchi»), *bayırsaq* («mehribon»), *etigli* («yashnatuvchi»), *mänü* («mangu»), *muhsuz* («mungsiz»), *tutči tirig* («doim tirik»), *čergüči* («olampanoh»), *biliglig* («bilimli, bilguchi»), *köšüş* («aziz»), *yaratıyli* («yaratuvchi»), *yaraqsizni yiratiyli* («yaroqsizni yiraturvchi») va b.

Muallifning urgʻulashicha, Allohning mingta oti, yaʼni goʻzal ismi bor. Tavgʻach Bugʻraxon taʼrifiga bagʻishlangan baytlarning birida shunday deyiladi:

*Bayat berdi davlat, ey türkän qutı,
Aniñ şukrı qılyu oqıp miñ atı.*

«Ey turklarning baxti, xudo senga davlat berdi; / (Buning haqiga Allohning) mingta otini yod etib, uning shukrini qilmoq kerak» (QBN.11a,11).

Endi asarda kechgan goʻzal ismlarni oʻrnaklarda koʻrib chiqamiz.

ʼazza va jalla (عز و جلا) – «eng aziz va eng ulugʻ»: *Hamd-u sepa-s-u minnat-u ögdi täjri ʼazza va jallaqa*. – «Hamdu sano, shukrona va maqtovlar (boʻlsin) eng aziz va eng ulugʻ tangriga» (QBQ.1b,2).

Hamd boʻlimidan olingan quyidagi baytga eʼtibor qiling:

*Uluyluy edisi, uyan, duljalāl,
Yaratqan, törütkün ma qādir kamāl.*

«Ulugʻliq egasi, qodir, zuljalol, / Yaratuvchi, bino qiluvchi hamda qodir kamol» (QBQ.2a,10).

Baytda kecghan *uhryluy edisi* (اولوغ لوغ ايديسى) – «ulugʻliq egasi», *uyan* (اوغان) – «qodir», *δuljalāl* (نوالجلال) – «zuljalol», *yaratqan* (يرتقان) – «yaratuvchi», *törütkān* (توروتكان) – «bino qiluvchi», *qādir kamāl* (قادر كمال) – «qodir kamol» Allohning goʻzal ismlaridir.

Asarda keltirilgan turkiy basmala *törütkān* (توروتكان) – «yaratgan», *igidgān* (ايگيدگان) – «parvarishlagan», *kečürgān* (كچورگان) – «kechirgan» sifat ismlari bilan kelgan. Mana oʻsha basmala:

*Bayat atī birlä sözüg başladım,
Törütkān, igidgān, kečürgān edim.*

«Xudo nomi bilan soʻzni boʻshladim, / Yaratgan, parvarishlagan, kechirgan egamdir» (QBN.11b,11).

Allohning goʻzal ismlaridan yana birov *bir* (بیر) – «yagona [vohid]»: *Aya bir, birikmāz seḡā bir ađin.* – «Ey yagona [vohid], boʻlak biror narsa senga birika olmaydi» (QBN.7b,8).

Bayt:

*Öküš ögdi birlä tümän miñ sanā
Uyan, bir bayatqa, anar yoq fanā.*

«Talay madhlar bilan tuman ming sanolar boʻlsin / Qodir va vohid ilohga, foniylilik uning uchun yotdir» (QBN.7b,2).

Keltirilgan baytda *uyan* (اوغان) – «qodir», *bir* (بیر) – «vohid» goʻzal ismi tilga olingan.

Allohning yana bir goʻzal ismi *bir-ol bir* (بیر اول بیر) – «yakkayu yolgʻiz»: *Bir-ol bir iđi-kim, törütti iki.* – «Yakkayu yolgʻiz egamkim, ikki olamni yaratdi» (QBN.136b,1).

Bu sifat *bir-ök* (بیروک) – «vohid-oʻq» shaklida ham ishlatilgan: *Bir-ök «bol» tedi, boldi qulmish qamuy.* – «Vohid-oʻq «boʻl» dedi, istagan hamma narsalari boʻldi» (QBN.7b,4).

tügäl qudratliḡ pādšāh (توگال قدرت لیغ بادشاه) – «tugal qudratli podshoh» (QBQ.1b,2–3).

yerli kökli yaratyan (ییرلی کولکی یراتغان) – «yer va koʻkni yaratgan» (QBQ.1b,3).

qamuy tınliylarğa rozî bergän (قموغ تینلیغ لارقا روزی بیرکان) – «hamma tin oluvchilarga rizq bergan» (QBQ.1b,3).

xalāyiq bilä yer-kök edisi (خالیق بیلا بیر کوک ایدیسی) – «xaloyiq bilan yeru koʻkning egasi»:

*Ey, yer-kök edisi xaloyiq bilä
Rozîni anutmiş, yegil sen külä.*

«Ey (inson), xaloyiq bilan yeru koʻkning egasi / Rizqni hozirladi, sen xursand boʻlib, (uni) yegin» (QBQ.2a,11).

saqışsiz berigli qamuyqa rozî (ساقیش سیز بیریکای قموغ قا روزی) – «barchaga hisobsiz rizq beruvchi»:

*Saqışsiz berigli qamuyqa rozî
Yetürür qamuyni ma yemäs özi.*

«Barchaga hisobsiz rizq beruvchi / Jumla sonlilarni yediradi, lekin oʻzi yemaydi» (QBQ.2a,12).

Tagʻin bir oʻrnak: *Munji yoq edi, bir, anjar yoq eşi.* – «Mungi yoʻq egam, vohid, uning eshi yoʻq» (QBN.7b,5). Ushbu jumlada *munji yoq* (مونکی یوق) – «mungi yoʻq», *bir* (بیر) – «vohid» sifatleri tilga olingan.

Quyidagi baytga eʼtibor qiling:

*Eđiz 'arşda aldın sarāqa tegi
Turur barča munluy seňä, ey edi.*

«Arsh-aʼlodan tortib rutbali yerga qadar / Barcha senga hojatmanddir, ey egam» (QBN.8a,10).

Bu oʻrinda *munluy* – «mungli; qaygʻusi bor» degani. Xudoning bandalari, jonivorlarga, yaralgan narsalarga nisbatan ishlatilganda, koʻproq «qaygʻusi bor; hojatmand» degan maʼnoda keladi. Shuni koʻzda tutganda, Allohga nisbatan ishlatilgan *munhsuz* yoki *munji yoq* sifatini «hech kimga va hech narsaga ehtiyojmand emas» deb tushunish kerak boʻladi.

Boshqa bir bayt:

*Ey erklig, uyan, mänü, muhsuz bayat,
Yaramas seniñdin adınqa bu at.*

«Ey erkli, qodir, mangu, mungsiz xudo, / Sendan oʻzgaga bu nom yarashmaydi» (QBN.7b,6).

Ushbu baytda *erklig* (ارکلیک) – «erkli», *uyan* (اوغان) – «qorir», *mänü* (منکو) – «mangu», *muhsuz* (مونکسوز) – «mungsiz» sifatlari tilga olingan.

yafür (غفور) – «gʻofur»: *Quluñ-men, edim-sen menä, ey yafür*. – «Qulingman, mening egamdirsan, ey gʻofur» (QBQ.11a,12).

xāliq (خالق) – «xoliq»: *Törütügli xāliq ne qulsa, qilur*. – «Yaratuvchi xoliq nimani istasa, qiladi» (QBN.31a,8).

Allohning *tüzün* (توزون) – «karamli», *bilir* (بلیر) – «bilagʻon» sifat otlari ham bor: *Tüzün-sen, yazuqum keçür, ey bilir*. – «Karamlisan, gunohimni kechir, ey bilagʻon» (QBQ.11a,14).

Tagʻin bir oʻrnak: *Aya mänügü, mühsüz edim-sen, uluy*. – «Ey mangu, mungsiz egam, sen ulugʻdirsan» (QBQ.11a,9). Ushbu jumlada *mänügü* (منکو) – «mangu», *mühsüz* (مونکسوز) – «mungsiz», *uluy* (اولوغ) – «ulugʻ» sifatlari tilga olingan.

yazuq yarliqayli (يازوق يرليقاغلی) – «gunohlarni kechiruvchi»: *Sen-ök-sen yazuq yarliqayli edim bir*. – «Gunohlarni kechiruvchi yagona egam faqat sendirsan» (QBQ.192b,16).

vafāli (وفالیه) – «vafoli, vafo qiluvchi»: *Vafāli edim-sen menä qil vafā*. – «Vafoli egamsan, menga vafo qil» (QBQ.11a,17).

mänü açu (منکو اچو) – «mangu padar» sifati:

*Sezigsiz bir-ök-sen, ey mänü açu,
Qatilmaz-qarilmaz saqişqa, seçü.*

«Sen, shaksiz, yagonasan, ey mangu padar, / Taftishga sigʻmas, mansub emas, (shunday) tushunarli» (QBN.7b,10).

iç-taş biligli (ایچ تش بیللیکلی) – «ich (va) tash (sirlarini) biluvchi», *haqu-l-yaqin* (حق الیقین) – «eng yaqin haqiqat, haqiqatning eng yaqini» sifatlari: *Ey iç-taş biligli, ey haqu-l-yaqin* – «Ey ich (va) tash (sirlarini) biluvchi, ey haqiqatning eng yaqini» (QBN.7b,11).

sirqa yaqin (سرقا یقین) – «sirga yaqin», *adiz* (ادیز) – «aziz» sifatlari: *Ey sirqa yaqin, ey köñülkä adiz* – «Ey sirga yaqin, ey koʻngilga aziz» (QBN.8a,6).

čergüči (چرگوجي) – «olampanoh»: *Aya čergüči, kel, meni čergülä.* – «Ey olampanoh, kel, meni panohingga ol» (QBN.20b,1).

Bayt:

*Ey muhsuz idim, mänü, tutči tirig,
Ölümkä törüttün bu sansiz tirig.*

«Ey mungsiz, mangu va doim tirik egam, / Bu sanoqsiz tiriklarni oʻlim uchun yaratding» (QBN.20b,6).

Ushbu baytda *muhsuz* (مونكسوز) – «mungsiz», *mänü* (منكو) – «mangu», *tutči tirig* (توتجی تیریك) – «doim tirik» sifatlari tilga olingan.

«Qutadgʻu bilig»da *qamuıyda aşnu* (قموغ دا اشنو) – «hammadan boshda; hamma avvallarning avvali», *öñdün* (اونكدون) – «azal», *kedın* (كدین) – «oxir» sifatlari ham qayd etilgan: *Qamuı aşnuda-sen, se(n) öñdün, kedın.* – «Sen hamma avvallarning avvali, azal va oxirdirsan» (QBN.7b,8).

Bayt:

*Tilim, tınma, öggil yaratıylını,
Yaraysızni mendin yiratiylını.*

«Tilim, yaratuvchini tinmay maqtagin, / Yaroqsiz (narsalar)ni mendan yirativchini» (QBN.20b,9).

Baytdagi *yaratıylı* (یراتغلی) – «yaratuvchi», *yaraysızni yiratiylı* (یراغسیزنی) – «yaroqsizni yirativchi» ham Allohning sifatlaridir.

köşüş (کشوش) – «aziz»: *Özüñ fadlı birlä keçür, ey köşüş.* – «(Gunohlarimni) oʻz fazling bilan kechirgin, ey aziz» (QBN.21a,9).

bayırsaq (باغیرساق) – «mehribon»: *Sewüg sawçı ıdıtı bayırsaq edı.* – «Mehribon egam sevikli rasul yubordi» (QBN.8b,6).

Allohning bu sifati *čın bayırsaq* (چین بغیرساق) – «chin mehribon» shaklida ham ishlatilgan: *Aya čın bayırsaq, vafalıy edım.* – «Ey chin mehribon, vafoli egam» (QBN.138a,4).

Allohning taʼriflari:

Asarda Alloh quyidagicha taʼriflanadi:

oxşayı yoq – «oʻxshashi yoʻq», *menżägi yoq* – «monandi yoʻq», *netäglikkä hamıyyat ögi yetmäs* – «qanaqaligiga taʼblarning fahmi yetmaydi»:

*Aniḡ oxšayī yoq azu meḡzāgi,
Netāglikkā yetmāz ḡamiyyat ögi.*

«Uning [yaʻni xudoning] oʻxshashi yoki monandi yoʻqdir, / Qanaqaligiga taʼblarning fahmi yetmaydi» (QBN.8a,2).

yurimaz – «yurmaydi», *yatmaz* – «yotmaydi», *uḡimaz* – «uxlamaydi», *uḡuy* – «uygʻoq», *meḡzāg kötürmāz* – «mengzari yoʻq» [*soʻzma-soʻz*: «mengzashni koʻtarmas»], *yaḡzay kötürmāz* – «oʻxshashi yoʻq» [*soʻzma-soʻz*: «oʻxshatishni koʻtarmas»], *boḡuy kötürmāz* – «surati yoʻq» [*soʻzma-soʻz*: «suratni koʻtarmas»]:

*Yurimaz ya yatmaz, uḡimaz, uḡuy,
Ya meḡzāg, ya yaḡzay kötürmāz, boḡuy.*

«(U) yurmaydi yoʻyotmaydi, uxlamaydi, (u) uygʻoqdir, / Yo mengzaydigan, yoʻoʻxshaydigan surati yoʻqdir» (QBN.8a,3).

Oʻtirar oʻrni, joyining yoʻqligi olamning tomonlariga (olti yoq – yer yuzi uzra va vertikal, yaʻni tik holatda) koʻra: *keḡin ermāz* – «ketinda, orqada emas» [*soʻzma-soʻz*: «ketin emas»], *öḡdün ermāz* – «oldinda emas» [*soʻzma-soʻz*: «oʻngdin emas»], *soldin ermāz* – «soʻlda, chap yoqda emas» [*soʻzma-soʻz*: «soʻldin emas»], *öḡün ermāz* – «oʻngda, oʻng yoqda emas» [*soʻzma-soʻz*: «oʻngin emas»], *astin ermāz* – «ostda emas» [*soʻzma-soʻz*: «ostin emas»], *üstün ermāz* – «ustda emas, tepada emas» [*soʻzma-soʻz*: «ustun emas»], *otru orunī yoq* – «oʻtirar oʻrni yoʻq»:

*Keḡin, öḡdün ermāz ya soldin, öḡün,
Ya astin, ya üstün, ya otru orun.*

«Ketinda ham, oldinda ham, soʻlda ham, oʻngda ham emasdir, / Ostda ham, ustda ham emas, oʻtirar oʻrni ham yoʻqdir» (QBN.8a,4).

Uning oʻrni yoʻqligi shunday taʼkidlanadi:

*Orun ol törütti, orun yoq aḡar,
Aniḡsiz orun yoq, muḡir bol muḡar.*

«Oʻrinni u yaratdi, oʻzining esa oʻrni yoʻq [*soʻzma-soʻz*: «unga oʻrin yoʻq»], / Uningsiz oʻrin yoʻqdir, bunga iqror boʻlgin» (QBN.8a,5).

sejā bir ađin birikmāz – «boʻlak biror narsa senga birika olmaydi»: *Aya bir, birikmāz sejā bir ađin*. – «Ey yagona [vohid], boʻlak biror narsa senga birika olmaydi» (QBN.7b,8).

Qurʻoni karimning eski turkiy tildagi oʻgirmasida ishlatilgan atamalar.

Qurʻoni karim eski turkiy tilidagi oʻgirmasida ham Alloh goʻzal ismlarining butun boshli tizimi jamlangan. Yanada muhimi, «Qutadgʻu bilig»da va Qurʻon oʻgirmasida keltirilgan goʻzal ismlarning koʻpi turkiy soʻzlar. Yusuf Xos Hojib ham, Qurʻon tarjimoni ham eski turkiy tilning bor imkoniyati va boyligidan unumli foydalangan.

«Baqara» surasi *alif, lām, mīm* (الم) harflari bilan boshlangan. Muhimi shundaki, Qurʻonning eski turkiy oʻgirmasida bu harflar tafsir qilingan. Ular: *Men Taŋri, bilgānrāk-men* (Ok.2/1), yaʼni «Men Tangri, bilginrakdurmen» deb berilgan.

Qurʻoni karimdagi الله («Alloh») soʻzi eski turkiy oʻgirmada *Taŋri* (Ok.2/1), *İdi* (Ok.97) soʻzlari bilan berilgan.

Qadimgi va eski turkiy til, eski oʻzbek tili yozma yodgorliklarida qoʻllangan *Täŋri* soʻzi ingichka oʻzaklidir. Hatto Alisher Navoiy asarlari tilida bu soʻz [e] tovushi bilan *Teŋri* deb talaffuz qilingan, chunki u qoʻlyozmada *yā* harfi bilan ham yoziladi: *Teŋri taʼālā* (تينكرى تعالى) (Mun.400a,9). Yana chogʻishtiring, *Teŋri* soʻzidagi [e] tovushi harakat bilan ham ifodalanuvi mumkin: *Teŋri taʼālāya* (تتكرى تعالى غه) (NMb.26a,7).

Muhimi shundaki, «Qutadgʻu bilig»da *Täŋri ~ Teŋri* soʻzi ingichka talaffuz qilingan. Qizigʻi, bir-ikki oʻrinda uning yoʻgʻon shakli ham uchrab qoladi. Buni unga qoʻshimchalarning yoʻgʻon varianrlari qoʻshlayotganidan ham bilsa boʻladi: *Taŋriqa* (تتكريقا) – «Tangriga» (QBN.135b,11); *Taŋriy* (تتكريغ) – «Tangrini» (QBN.43b,11).

Qurʻonning eski turkiy tildagi oʻgirmasida esa *Taŋri* soʻzi izcil yoʻgʻon talaffuz qilingan. Jonalish kelishigida bu soʻzga qoʻshimchaning *-qa* varianti qoʻshilgani ham uning yoʻgʻon talaffuz qilinganiga dalolat qiladi: *Taŋriqa* (Ok.16/62).

Eski turkiy tilda Allohning goʻzal ismlari (sifat ismlari) *at* deyilgan. Masalan, «Qutadgʻu bilig»dan olingan quyidagi baytda Allohning sifatлари koʻzda tutilayotir:

*Ey erklig uyan mänü muhsuz bayat,
Yaramas Seniñdin ađınqa bu at.*

«Ey erkli, qodir, mangu, mungsiz xudo, Sendan oʻzgaga bu ot (yaʼni sifatlar) yarashmaydi» (QBN.7b.6).

Allohning goʻzal ismlari (sifat ismlari), koʻpincha, sifat turkumiga tegishli soʻzlar boʻlib keladi: *uyan* (Ok.1) – «qodir»; *bayirsaq* (Ok.112) – «mehribon»; *mehrbān* (Ok.7) – «mehribon» singari.

Allohning goʻzal ismlari koʻp oʻrinda sifatdosh ham boʻlib keladi. Bular: *-yan, -gān / -qan, -kān* affiksli sifatdoshlar: *Taḡrī bilgān, kečürgān-ol* (Ok.4/12). – «Tangri bilguchi va kechirguchidir».

Yoki yana: *törütkān* (Ok.2) – «yaratgan»; *yigidgān* (Ok.6) – «parvarishlagan»; *suyurqayan* (Ok.8) – «yorlaqagan»

-yli, -gli hamda *-dači, -däči* affiksli sifatdoshlar: *bayışlayli* (Ok.14) – «bagʻishlovchi» singari.

-quči, -küči / -yuči, -güči affiksli sifatdoshlar: *taplayučı* (Ok.17) – «farqlovchi; saylovchi».

Sifatdoshlar turli variantlarda ishlatiluvchi ham mumkin. Masalan: *yarliqayan* (Ok.7); *yarliqayli* (Ok.97); *yarliqadači* (Ok.5) – bularning uchovi «yorlaqagan, yorlaqovchi» degan maʼnoni beradi; yoki yana: *qamuy mōminlarni yarliqayan* (Ok.1) – «barcha moʻminlarni yorlaqagan» singari.

Yoki yana: *rōzī bergān* (Ok.2); *rōzī berigli* (Ok.4); *rōzī berdäči* (Ok.5) – bularning ham uchovi «rizq bergan, rizq beruvchi» degani; yoki yana: *qamuy tinliyya rōzī berigli* (Ok.1) – «hamma nafas oluvchi jonzotga rizq beruvchi» singari.

Sifat ismlar baʼzan son turkumiga ham tegishli soʻz boʻladi: *bir* (Ok.1) – «bir, yolgʻiz».

Sifat ismlar soʻz birikmasi holida ham keladi:

öküş rahmatlig (Ok.3) – «koʻp rahmatlar ato etuvchi; rahmati moʻl».

rahmati tutuş (Ok.3) – «rahmati cheksiz, uzluksiz».

hājatı yoq (Ok.112/2) – «hech kimga qaramligi yoʻq; mungsiz».

kenrū işlig (Ok.2/115) – «karami keng».

uluy fazl eyäsi (Ok.3/174) – «ulugʻ fazilat egasi».

Allohning goʻzal ismlariga yana oʻrnaklar:

uyan, yaʼni «qodir»: *Taḡrī tegmä närsä üzä uyan turur* (Ok.3/189). – «Tangri hamma narsaga qodirdir».

ken, bilgān, yaʼni «fazlu karami keng va bilguchi»: *Taqi Taḡrī ken, bilgān* (Ok.3/73). – «Yana Tangri fazli keng, bilguchidir».

kenrū işlig, yaʼni «karami keng»: *Taḡrī kenrū işlig, bilgān-ol* (Ok.2/115). – «Tangri karami keng, bilimdondir».

ködäzçi, yaʼni «saqlagʻuchi [kuzatuvchi]»: *Taḡrī erür silär üzä ködäzçi* (Ok.4/1). – «Tangri sizlar uza saqlagʻuchi[kuzatuvchi]dir» (arabchada shunday:

(إِنَّ اللَّهَ كَانَ عَلَيْكُمْ رَقِيبًا). Alouddin Mansur oʻgirmasida: «Albatta Alloh ustingizda kuzatuvchi boʻlgan zotdir».

Arabchada shunday kelgan: وَكَانَ اللَّهُ عَلِيمًا حَكِيمًا (4:17). Turkiy oʻgirmada shunday: *Erür Tanrı bilgän, bütün işlig* (Ok.4/17). Alouddin Mansur oʻgirmasida: «Alloh bilim va hikmat egasidir».

yazuq örtkän, yaʼni «gunohlarni kechiruvchi»: *Tanrı erür yazuq örtkän, yarlıqayan-ol* (Ok.4/23). – «Tangri magʻfiratli va yorlaqagandir».

Tanrı erür tegmä närsä üzä tanuq (Ok.4/33). – «Tangri hamma narsaga guvohdir».

Tanrı erür yüksäk, uluy (Ok.4/34). – «Tangri yuksak va ulugʻdir».

Tanrı erür bilgän, uqqan (Ok.4/35). – «Tangri bilguchi va uqquchidir».

Tanrı erür keçürgän, yazuq örtkän (Ok.4/43). – «Tangri kechirguchi va magʻfiratlidir».

Tanrı erür eşitkän, körgän (Ok.4/58). – «Tangri eshitguchi va koʻrguchidir».

Tap-ol Tanrı, tanuq (Ok.4/79). – «Bunga Tangrining oʻzi yetarli guvohdir».

Tap Tanrı ködäzçi (Ok.4/81). – «Tangrining oʻzi yetarli saqlagʻuchi [vakil] dir» (arabchada shunday: بِاللَّهِ وَكَيْلًا). Alouddin Mansur oʻgirmasida: «Allohning oʻzi yetarli vakildir».

Qadimgi turkiy tilda *ködäzçi* ~ *küdäzçi* ~ *küädäzçi* «soqchi; saqlovchi»dir (*qarang*: DTC.324). Ushbu oyatda arabcha *vakıl* soʻzining oʻrnida ham ishlatilgan. Anglashiladiki, eski turkiy tilda bu soʻzning «kuzatuvchi; vakil» maʼnolari ham bor.

Tanrı erür tegmä bir närsä üzä saqış tutuylı (Ok.4/86). – «Tangri hamma narsani hisobga olgʻuchidir».

Erür Tanrı yazuq örtkän, yarlıqayan (Ok.4/100). – «Tangri magʻfiratli va yorlaqovchidir».

Erür Tanrı bilgän, bütün işlig (Ok.4/104). Alouddin Mansurning arabchadan amalga oshirgan oʻgirmasida: «Alloh bilim va hikmat egasidir» deb berilgan.

Erür Tanrı tegmä närsäni qapsayu biligli (Ok.4/126). – «Tangri hamma narsani saqlay bilivchidir».

Erür Tanrı keñrü işlig, bütün işlig (Ok.4/130). – «Tangri fazlu karami keng va hikmat egasidir».

Erür Tanrı eşitkän, körgän (Ok.4/134). – «Tangri eshitguchi, koʻrguchidir».

Erür Tanrı sipäs padirlägli, bilgän (Ok.4/147). – «Tangri shukr qilgʻuchi va bilguchidir».

Tanrı yarlıqayan, rahmat qilyan (Ok.3/30). – «Tangri yorlaqovchi, rahmat qilgʻuchidir».

Taḡrī erür kečürgän, uyan (Ok.4/149). – «Tangri kechirguchi va qudratlidir».
Tap-ol Taḡrī tanuq (Ok.4/166). – «Tangrining oʻzi yetarli guvohdir».
Taḡrī tegmä närsäni bilgän-ol (Ok.4/176). – «Tangri hamma narsani bilguchidir».
Taḡrī terk saqışlıy-ol (Ok.2/202). – «Tangri tez hisob-kitob qilgʻuchidir».
Bilgil-kim, Taḡrī köşüş turur, bütin işlig (Ok.2/260). – «Bilgilki, Tangri qudratli va hikmatlidir».
Taqī Taḡrī uluy faḡl eyäsi (Ok.3/174). – «Tagʻin Tangri ulugʻ fazilat egasidir».
Taqī Taḡrī qamuy närsä üzä yaraylıy turur (Ok.2/284). – «Tagʻin Tangri hamma narsaga yaroqlidir [yaʻni qodirdir]».

BASMALA VA UNING TURKIY TILDA IFODALANISHI

Muhammad alayhi-s-salomga Qurʻoni karimning ilk bor koʻkdan ingan (nozil boʻlgan) «Alaqq» surasi «(Qurʻonni) Yaratgan Rabbingning oti bilan (boshlab) oʻqi» (أَفْرَأَ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ) oyati bilan boshlanadi (96:1).

Qurʻonning bu oyati eski turkiy tilga shunday oʻgirilgan: *Oqıyıl İdiñ atı birlä, ol-kim, yarattı* (Ok.96/1). – «Oʻqigʻil (Oʻqigʻuni) yaratgan Egangning oti bilan».

Basmala (بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ) ayni koʻrsatma asosida shakllangan. Bu oyat Qurʻoni karim suralarini shunday unvon bilan boshlashga xitob edi.

Yana Naml surasining 30- oyati (27:30) shunday kelgan: إِنَّهُ مِنْ سُلَيْمَانَ وَإِنَّهُ بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ. Mazmuni: «Albatta, u Sulaymondandir va u (maktubda shunday bitilgan): «Mehribon va rahmli Allohning nomi bilan boshlayman».

Ushbu oyatning eski tuki matndagi oʻgirmasi: *Ol Sulaymāndin; ol Taḡrī atı birlä rōzī berigli, yarlıqaylı* (Ok.27/30). – «U (maktub) Sulaymondandir; u rizq berguchi, yorlaqovchi Tangri oti bilan (deb boshlangan)».

Hud surasining 41- oyati (11:41) shunday: وَقَالَ ارْكَبُوا فِيهَا بِسْمِ اللَّهِ مَجْرَاهَا). Mazmuni: «(Nuh) aytdi: «Unga [kemaga] mininglar! Uning suzishi ham, toʻxtashi ham Allohning ismi bilandir. Albatta, Rabbim kechirimli va rahmlidir».

Ushbu oyatning eski tuki matndagi oʻgirmasi shunday: *Aydi: Miniñlär anıñ içinä; Taḡrī atı birlä anıñ yürimäki, anıñ langar kemişmäki. Meniñ İdim yazuq örtkän, yarlıqayan* (Ok.11/41). – «(Nuh) aytdi: Mininglar unga [kemaga]; uning suzishi, langar tashlashi Tangri oti [yaʻni hukmi] bilandir. Mening Egam gunoh(lar)ni kechirguchi, yorlaqovchidir».

Shulardan kelib chiqib, Qurʻoni karimning «Tavba» surasidan boshqa hamma surasi basmala bilan boshlanadi. Islomda barcha ezgu soʻz va yaxshi, muhim ishlarni basmala bilan boshlash anʻana boʻlgan.

«Charxiy tafsiri»da basmalaning tafsiri yaxshi berilgan. Kerak degan kishi oʻsha kitobdan qarasin (TTQ.66–69).

Islom davri asarlari ham basmala bilan boshlangan va uni tarjima qilmay, asliday ishlatish rusum boʻlgan. Biroq «Qutadgʻu bilig» asarida kelgan basmala turkiy tildadir. Basmalani ilk bor turkiy tilda keltirgan ham Yusuf Xos Hojib boʻladi (*qarang*: Sodiqov 2022,255–259).

Chunonchi, asarning uygʻur yozuvli Hirot nusxasida Allohga bagʻishlangan hamd boʻlimi va «Yeti yulduz on iki ökäk buruj ayur» bobi shunday boshlanadi:

*Bayat atı birlä sözüg başladım,
Törütkün / törätkän, igidgän, kečürgän idim.*

«Xudoning oti bilan soʻzni boshladim, yaratgan, parvarishlagan, kechirgan egamdır» (QBH.8a,26).

Shuningdek, asar davomida personajlarning bir-biriga yozgan maktublari ham berilgan. Ular shunday boshlanadi:

*Bayat atı birlä sözüg / sözün başladı,
Törütkün, igidgän, kečürgän idi.*

«Xudoning oti(ni tilga olish) bilan soʻzini boshladi, / Yaratgan, parvarish qilgan, kechirgan ega(m dedi)» (QBH.28a,20; 53b,20; 56a,30).

Endi keltirilgan bayt mazmunini tahlil qilib chiqamiz. Asarning boshida berilgan:

*Bayat atı birlä sözüg başladım,
Törütkün / törätkän, igidgän, kečürgän idim –*

baytini mazmunan ikki qismga ajratish mumkin. Bular: matn (soʻz) xudo otini zikr etish bilan boshlanayotganining taʼkidi (*Bayat atı birlä sözüg başladım*) hamda Tangri(*idi*)ning yaratganligi (*törütkün / törätkän*), parvapishtaganligi (*igidgän*) va rahmli, kechiruvchi (*kečürgän*) ekanligining eʼtirofi.

Birinchi jumlada kechgan *Bayat* soʻzi islom tushunchasida Haq taolo (Alloh)dir; *at* soʻzi esa Allohning oti (*bayat atı*)ga ishoradir.

Bayat atī birlā birikmasi «Allohning otini yod etib» maʼnosini beradi. Ayni birikmada arabiy basmala (*Bi-smi-l-lāhi-r-raḥmāni-r-raḥim*) koʻzda tutiladi; *Bayat atī birlā sözüg başladim*, deyilganda «Allohning oti bilan soʻzni boshladim» / «Bismilloh bilan soʻzni boshladim» degan maʼno bor.

Jumladagi *Bayat atī* birikmasi alahida olinganda arabiy basmaladagi *ismi-l-lāh* ga teng keladi. Keyingi satrdagi *törütkün, igidgän, kečürgän idim* esa arabiy basmaladagi *rahmāni-r-raḥim* sifatlarining sharhi boʻlib kelmoqda.

Tahlil asosida yuqoridagi baytni anʼanaviy basmalaning turkiy versiyasi, uning turkchalashgan shakli deyish mumkin. Uning asar boshida berilgani, soʻng hamdu sanoga oʻtilgani ham ayni fikrni tasdiqlab turibdi.

Sharhlanayotgan baytda ham *Bayat atī birlā* hamda *törütkün, igidgän, kečürgän* birikmalari arabiy basmalaga aynan muvofiq boʻlib, muayyan qolipli, oʻzgarmas komponentlar sanaladi. Qolgan boʻlaklar esa nutq vaziyatidan kelib chiqib oʻzgaruvi mumkin. Masalan, asar boshida matn Yusuf Xos Hojibning oʻz tilidan ifodalangani bois, gap kesimi *başladim*, maktublarning boshida esa asar qahramonlari haqida soʻz borayotgani uchun gap kesimi *başladī, tedi* shaklida kelgan.

Qurʼoni karimning turkiy tildagi eng eski oʻgirmasida ham basmala turkiy tilda, biroq u «Qutadgʻu bilig»dagi basmaladan biroz farq qiladi.

«Qutadgʻu bilig»da kechgan basmaladagi *Bayat atī birlā* birikmasi oʻrniga Qurʼonning eski turkiy oʻgirmasida *İdi atī birlā / Taḡrī atī birlā / Başladim Taḡrī atī birlā* jummalari ishlatilgan. Ulardagi *İdi, Taḡrī* soʻzlari «Alloh»ni anglatadi. *İdi atī birlā / Taḡrī atī birlā* jummalari esa ushbu sura Allohning otini atab, Tangrining otini atab oʻqiy boshlanganiga ishoradir.

Jumladan, Qurʼoni karim oʻgirmasida «To-ha» surasidagi basmala shunday shaklda: *Ol İdi atī birlā, bayirsaq, yarliqadači* (Ok.20). – Ushbu basmala shu turishda arabcha jumlaning soʻzma-soʻz oʻgirmasi boʻlib, «Ul mehribon, yorlaqovchi parvardigor oti bilan» deganidir. Bu oʻrinda mehribon, yorlaqovchi parvardigorning otini tilga olish bilan sura oʻqiy boshlanayotgani taʼkidlanayotir. Shuning uchun bu jumlani hozirgi oʻzbek tilida quyidagicha anglab, talqin qilinmogʻi kerak: «(Surani) ul mehribon, yorlaqovchi parvardigor oti(ni tilga olish) bilan (oʻqiy boshladim)».

«Anbiyo» surasi shunday basmala bilan boshlanadi: *Ol İdi atī birlā, rōzī berigli, yarliqayli* (Ok.21). – «(Surani) ul rizq beruvchi, yorlaqovchi parvardigor oti bilan (oʻqiy boshladim)».

«Moʻmin» surasi shunday basmala bilan boshlangan: *Başladim Taḡrī atī birlā, rōzī berigli, yarliqayli* (Ok.23). – «(Surani) rizq beruvchi, yorlaqovchi Tangri oti bilan (oqiy) boshladim».

«Fātiḥatu-l-Kitāb»dagi basmala shunday: *Törütkānimiz, bir, uyan İdi atı birlä; bayırsaq, qamuy tınliḡqa rōzı beriglı, qamuy mō'minlarnı yarlıqayan* (Ok.1). – «(Surani) yaratgan egamiz, vohid, qodir, mehribon, barcha jonzodlarga rizq berguchi, yorlaqovchi parvardigor oti bilan (o'qiy boshladim)».

«Baqara» surasida: *Başlarmız törütkān, ektülägän uluy İdi atı birlä; rōzı bergän qamuy tebräniglılärkä, anar kirtgünmişni yarlıqadaçı* (Ok.2). – «(Surani) barcha tebranuvchilarga rizq bergan, O'ziga sig'ing'uchilarni yorlaqovchi, yaratgan, parvarishlagan ulug' Tangri oti bilan (o'qiy boshlaymiz)».

«Ol-i Imron» surasida: *Taḡriniḡ atı birlä başlayur-men; öküş rahmatlıg, rahmati tutuş* (Ok.3). – «(Surani) rahmati ko'p, rahmati uzluksiz Tangrining oti birla (o'qishni) boshlayman».

«Niso» surasida: *İdi atı birlä, rōzı beriglı, yarlıqaylı* (Ok.4). – «(Surani) rizq beruvchi, yorlaqovchi parvardigor oti bilan (o'qiy boshladim)».

«Moida» surasidagi basmala shunday: *Ol İdi atı birlä-kim, rōzı berdäci, yarlıqadaçı* (Ok.5). – «(Surani) rizq berguchi, yorlaqovchi ul parvardigor oti(ni tilga olish) bilan (o'qiy boshladim)».

«An'om» surasida: *Ol İdim atı birlä-kim, yigıdgän, rōzı bergän, suyurqap 'ayb örtkān* (Ok.6). – «(Surani) parvarishlagan, rizq berguchi, ardoqlab, ayblarimizni kechirgan ul parvardigor oti(ni tilga olish) bilan (o'qiy boshladim)».

«A'rof» surasida: *Ol İdi atı birlä, anda adın İdi yoq; mehrbän-kim, 'aşılarnıḡ yazuqların örtär; yarlıqayan* (Ok.7). – «(Surani) mehribon, osiylarning gunohlarini kechirguchi, yorlaqagan ul parvardigor oti bilan (o'qiy boshladim), undan o'zga Tangri yoq».

«Xud» surasida: *Ol Taḡrı atı birlä-kim, badbaxtliḡni 'adlı birlä qaḡā qıldı; suyurqayan-kim, nekbaxtliḡni öz faḡlı birlä 'aḡā qıldı; dōstlariniḡ ḡajatin bayışlayan* (Ok.11). – «(Surani) badbaxtliḡni adli birla qazo qildi, yorlaqagan, nekbaxtliḡni o'z fazli birla ato qildi, do'stlarining hojatini bag'ishlagan ul Tangri oti birla (o'qiy boshladim)».

«Qadr» surasidagi basmala: *Ol İdi atı birlä bayırsaq, yarlıqaylı* (Ok.97). – «(Surani) mehribon, yorlaqagan ul parvardigor oti bilan (o'qiy boshladim)».

«Ixlos» surasida keltirilgan basmala shunday: *Ol İdi atı birlä bayırsaq, yarlıqaylı* (Ok.112). – «(Surani) mehribon, yorlaqagan ul parvardigor oti bilan (o'qiy boshladim)».

Muhimi shundaki, basmalani turkiyda keltirish keyingi yuzyillarda ham davom etdi. Temuriylar zamonida ushbu an'anani tutganlardan biri Alisher Navoiy bo'ldi. Uning «Siroju-l-muslimin» asari shunday bayt bilan boshlangan:

*Čū yondum hāma-yi muškīn šamāma,
Qīlay Haq yādī birlā zebnāma (SM.19b,1).*

Ushbu baytdagi *Haq yādī birlā* birikmasi «Qutadgʻu bilig»da kechgan basmaladagi *Bayat atī birlā*; Qurʻon oʻgirmasidagi *Īdī atī birlā / Tanrī atī birlā* birikmalarining oʻzidir.

Navoiyga ergashgan Zahiriddin Muhammad Bobur boʻldi. Uning «Mubayyan» asari shunday bayt bilan boshlangan:

*Haqqa hamd-u sanā adā qıldim,
Haq atī birlā ibtidā qıldim (Müb.1).*

«Mubayyan»ning *Haq atī birlā ibtidā qıldim* degan boshlovchi jumlası «Qutadgʻu bilig»dagi *Bayat atī birlā sözüg başladım* yoki Qurʻonning turkiy oʻgirmasidagi *Başladım Tanrī atī birlā, rōzī beriglı, yarlıqaylı* ning oʻzidir.

Basmalani turkiyda keltirish Yusuf Xos Hojibning kashfiyotidir. Qurʻoni karim oʻgirmalarida ham basmala turkiy tilda keltirildi. Qoraxoniylar davrida boshlangan bu anʻana keyingi davrlarda ham unutilgani yoʻq, xususan, Navoiy va Bobur ham unga ergashib, oʻz asarlarida basmalani turkiyda keltirdilar. Buni oʻzbek klassik adabiyotida qoraxoniylar davri turkiy adabiyoti va adabiy tili, matn tuzish anʻanalarining taʼsiri deb baholamoq kerak.

YETTI YULDUZ OʻN IKKI BURJ ATAMALARI

«Qutadgʻu bilig»da olamning yaralishi va koinotning tuzilishi toʻgʻrisida ham soʻz yuritiladi. Bu masalada Yusuf Xos Hojib Sharqdagina emas, dunyo astronomiya bilimida ancha ilgʻorlab ketgan faylasuflardan sanaladi.

Ulugʻ mutafakkir, faylasuf Yusuf Xos Hojib XI yuzyildayoq olamning yaralishi va tuzilishi, sayyoralarning joylashuvi, Quyosh – turgʻun, Yer esa uning tevaragida evrilishi toʻgʻrisidagi ilgʻor qarashlarini sherga solgan. Ushbu falsafiy qarashlari bilan olim Sharq ilmidagina emas, dunyo falakiyotchilaridan ancha oldinlab ketgan edi. Vaholanki, Yevropa ilmida bu fikrga XVI yuzyilda yetib borildi.

Yanada muhimi, asarda yetti yulduz va oʻn ikki burj otlari turkiy tilda kelgan. Bu narsa oʻsha chogʻlarda turkiy dunyoda astronomik bilimlar yuksak bosqichda ekanidan dalolat qiladi.

«Qutadgʻu bilig» masnaviysining toʻrtinchi bobi yetti yulduz va oʻn ikki burjning taʼrifiga bagʻishlangan. Asarning Namangan qoʻlyozma-nusxasida ushbu bob *Yeti kavākib, on iki buruj* (yaʼni «Yeti sayyora va oʻn ikki burj (toʻgʻrisida)» deb atalgan (QBN.11b,10). Qohira nusxasida ushbu boʻlim tushib qolgan, lekin mundarijada qayd etilgan. U yerda u *Yeti kavākib, on iki yulduzni ayur* (yani «Yeti kabokib va oʻn ikki yulduz toʻgʻrisida aytadi») deb berilgan (QBQ.4b,6).

Asarning Hirot nusxasida ushbu bob matn orasidagi sarlavhada *Yeti yulduz, on iki ökāk buruj ayur* (yaʼni «Yeti yulduz, oʻn ikki burj (toʻgʻrisida) aytadi») deyilgan (QBH.8a,25). Qizigʻi shundaki, ayni nusxa mundarijasida (fihrist-i abvabda) ushbu bob *Yeti yulduz, tört yayız, on iki ökākniñ erdükini ayur* deb atalgan (QBH.4b,9).

Boshqa qoʻlyozma nusxalardan farqli oʻlaroq, bu sarlavhaga *tört yayız* birikmasining kiritilgani muhim va buning asosi bor. Qadimgi va eski turkiy tilda *yayız* sifati «yerning rangi»ni, yaʼni «qoʻngʻir rang»ni bildirgan: «osmon»ni *yaşıl kök* («moviy koʻk») desa, «yer»ni *yayız yer* («qoʻngʻir yer») deya taʼriflanadi badiiy asarlarda. Bu soʻz tuproqning sifati boʻlib kelganini eʼtiborga olsak, *tört yayız* birikmasida uning boshqa bir maʼnosi yuzaga chiqadi: bu oʻrinda *tört yayız* – «toʻrt unsur» deganidir.

Anglashiladiki, oʻtmishda *yayız* soʻzining «materiya, unsur» maʼnosi ham boʻlgan. Soʻzning bu maʼnosi birlamchidir: boshlab u «materiya, unsur» maʼnosida boʻlib, keyinchalik «tuproqning rangi»ni ham ifodalay boshlagan koʻrinadi.

Shularga tayangan holda, *Yeti yulduz, tört yayız, on iki ökākniñ erdükini ayur* sarlavhasini «Yeti yulduz, toʻrt unsur, oʻn ikki burjning qanday ekanini aytadi», deya tushunmoq kerak. Haqiqatan ham, ushbu bobda yetti yulduz, oʻn ikki burjdan tashqari, toʻrt unsur va ulardan olamning yaralgani haqida ham soʻz boradi.

Yusuf Xos Hojib sanab oʻtgan yetti yulduzning qadimgi turkiy atalishi shunday: «Zuhal»ni *Sekāntir*; «Mushtariy»ni *Oñay*; «Mirrix»ni *Körüd*; «Quyosh»ni *Yaşıq*; «Zuhra»ni *Sewit*; «Utorid»ni *Arzu*; «Oy»ni *Yalčiq* deydi. Koʻrinib turganidek, oʻsha chogʻlarda astronomik atamalarning bari turkiy edi.

Muallif koʻkdagi yetti yulduz haqida yozadi:

*Bu kökdäki yulduz bir anča bezäk,
Bir anča qulawuz, bir anča yezäk.*

*Bir anča törütmiş xalayıqqa ol,
Bir anča qulawuz bolur yıtsa yol.*

«Bu koʻkdagi yulduzlarning bir qanchasi bezakdir, / Bir qanchasi rahnamo,
bir qanchasi yoʻlchidir.

Bir qanchasini xaloyiq uchun yaratgandir, / Bir qanchasi yoʻl yoʻqolganda
yoʻlchi boʻladi» (QBN.12a,1–2).

Bu yulduzlarning joylashuv oʻrni va yorugʻligʻi ham turlicha: baʼzisi
yuqori, baʼzisi quyi, baʼzisi yorugʻu baʼzisi xira. Bu haqda deydi:

*Qayusi örüräk, qayusi qudi,
Qayusi yaruqraq, qayu eksüdi.*

«Baʼzisi yuqoriroq, baʼzisi quyidir, / Qay biri yorugʻroq, qay biri xiradir»
(QBN.12a,3).

Yusuf Xos Hojibning urgʻulashicha, yulduzlarning joylashuvi shunday:
bulardan eng ustda *Sekäntir* («Zuhā») yuradi. U bir burj (*ew*)da ikki yilu
sakkiz oy qoladi.

Keyingisi boʻlib *Oḡay* («Mushtariy») turadi. U bir burjda oʻn ikki oy
qoladi.

Uchinchi boʻlib *Körüd* («Mirrix») keladi. U qay tomon boqsa, yashnab
turgan narsa quriydi.

Toʻrtinchisi *Yašiq* («Quyosh») boʻldi, u olamni yotitdi.

Beshinchisi *Sewit* («Zuhra»)dir.

Soʻng *Arzu* («Utorid») keladi.

Bulardan eng oldda *Yalčiq* («Oy») yuradi. U *Yašiq* («Quyosh») bilan
yuzma-yuz kelgach, toʻlishadi.

«Burj»ni eski turkiy tilda *ökäk* deyilgan. Yusuf Xos Hojibning urgʻulashicha,
oʻn ikki *ökäk*, yaʼni burjlar yuqorida sanab oʻtilgan yulduzlardan boshqadir.
Shoir yozadi:

*On iki ökäk-ol bularda adin,
Qayu iki ewlüg, qayu birkä in.*

«Oʻn ikki oʻkak bulardan boshqadir, / Ayrimi ikki xonali [yaʻni juft], ayrimi bir xonali [yaʻni toq] dir» (QBN.12a,11).

Yusuf Xos Hojib sanab oʻtgan oʻn ikki *ökäk* ning eski turkiy tildagi atamalari shunday: «Hamal»ni *Qozi*; «Savr»ni *Uđ*; «Javzo»ni *Erändiz*; «Saraton»ni *Qučiq*; «Asad»ni *Arslan*; «Sunbula»ni *Buydaybaši*; «Mezon»ni *Ülgü*; «Aqrab»ni *Čadan*; «Qavs»ni *Ya*; «Jadiy»ni *Oylaq*; «Dalv»ni *Könäk*; «Hut»ni *Baliq* deydi.

*Üči yazqı yulduz, üči yayqı, bil,
Üči küzki yulduz, üči qışqı, bil.*

«Uchtasi koʻklamgi yulduz, uchtasi yozgi yulduzdir, bilgin, / Uchtasi kuzgi yulduz, uchtasi qishki yulduzdir, bilgin» (QBN.12a,15).

Yusuf Xos Hojib olamning yaralishini burjlarga bogʻlaydi, toʻrt unsur birligini ana shularda koʻradi:

*Üči – ot, üči – suw, üči boldı yel,
Üči boldı tupraq, ažun boldı, el.*

«Uchtasi oʻt, uchtasi suv, uchtasi havo boʻldi, / Uchtasi esa tuproq boʻldi, olam (va) el (shulardan) paydo boʻldi» (QBN.12b,1).

Ulugʻ donishmandning olam va uning tuzilishi haqidagi falsafiy qarashlari asar boʻylab davom etadi. Kitobni oʻqib, butun bir astronomik atamalar tizimiga toʻqnashamiz. Shu tizimning oʻzi-yoq oʻsha kezda astronomik bilimlar yuqori bosqichda ekanidan belgi berib turadi.

Yusuf Xos Hojibning taʼkidlashicha, *ewrān*, yaʼni «falak» doim evriladi (muttasil aylanadi), *tezginč*, yaʼni «Yer kurrasi» tezginadi (charx urib turadi). Muallif Allohga hamd oʻqir ekan, yozadi:

*Yarattı, kör, ewrān tuči ewrülür,
Aniñ birlä tezginč yemä tezginür.*

«Falakni yaratdi, koʻrgin, doim aylanadi, / Uning bilan charx ham charx uradi» (QBN.11b,13).

Yoki boshqa bir oʻrinda ulugʻ Tangrini «doim aylanuvchi bu falakni yaratdi» (*törütti bu ewrân tučï ewrülür*) deya alqaydi shoir. Buning bilan falakning izchil aylanishi, Yer kurrasining tinimsiz harakatda ekaniga ishora etiladi.

Muhimi shundaki, muallifning olam va uning tuzilishi toʻgʻrisidagi falsafiy qarashlari ilmiy kitoblardagidek toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki badiiy shaklda, asar qahramonlarining holati, gap-soʻzi orqali bayon etiladi. Asarda ilmiy haqiqat bilan ijodkorning badiiy tafakkuri oʻzaro uygʻunlashib ketgan. Hukmdor *Kuntugʻdi-elig* (otining lugʻaviy maʼnosi – «chiqqan, tuqqan Kun»), vazir *Oytoʻldi* («toʻlin Oy») – Quyosh va Oyning holatini ham badiiy shaklda aks ettiradi.

Yusuf Xos Hojib Oyni taʼriflar ekan, uning tinimsiz harakatda ekanini alohida taʼkidlaydi. Oyni taʼrifi asar qahramonlari *Kuntugʻdi-elig* bilan vazir *Oytoʻldi* suhbatida yaxshi ochib berilgan. *Oytoʻldi* deydi:

*Bu Ay tuyşa, aşnu eđi az tuyar,
Küninkä bedüyür, yuqaru ayar.*

*Tolun bolsa, tolsa, ažunda yarur,
Ažun xalqï andin yaryqluq bulur.*

*Tügäl bolsa, kör, Ay bu aysa eđiz,
Yana erlü törçir, ketär körk meñiz.*

*Yaruqluqï eksür, yana yoq bolur,
Tuyar kečä azin yana-oq tolur.*

«Oy tugʻulgada, boshlab juda kichik tugʻuladi, / Soʻng kundan-kin ulgʻayadi, yuqori koʻtariladi.

Toʻlun boʻlsa, toʻlsa, olamni yoritadi, / Olam ahli undan yorugʻliq topadi.

Oy tugal toʻlishib, eng baland koʻtarilsa, koʻrgin, / Yana yemirilib, kamaya boradi, yuz chiroyi ketadi.

Yorugʻligʻi kamayadi, yana yoʻq boʻladi, / Qayta tugʻulgach, kechasidan boshlab oz-ozdan yana toʻlishadi» (QBN.32b,1–4).

Muallifning urgʻulashicha, Oyning koʻrinishi shu qadar tez oʻzgara borishi uning doimiy hatakati bilan bogʻliq. Bu haqda Oytoʻldi shunday deydi:

*Bu Ay ornī boldi ewi munqalip,
Orunsuz bolur munqalip nāḡ qīlip.*

*Bu Ay burjī Sar(a)ṭān, bu ew ewrülür,
Ewi ewrülür ham özi čewrülür.*

*Qayu ewkā kirsä, bu Ay terk čiqar,
Čiqari üçün terk batarin yiqar.*

«Bu Oyning oʻrni oʻzgaruvchan uydır, / U oʻzgaruvchan harakat qilib, oʻrinsiz boʻlib qoldi.

Oyning burji Saratondir, bu uy doim aylanadi, / Uyi aylanadi, shuning uchun oʻzi ham charx uradi.

Qaysi uyga [burjga] kirmasin, bu Oy tez qaytib chiqadi, / Chiqish uyi boʻlgani uchun, botgan uyini tez tark etadi» (QBN.32b,13–15).

Yusuf Xos Hojibning taʼrificha, Oy harakatda boʻlgani uchun yorugʻligʻi oʻzgarib turadi. «Kun bilan yuzma-yuz kelganda toʻlishadi» (*Yašiq birlä oturu baqışsa, tolur*) deya taʼkidlaydi shoir.

Endi muallifning koinotdagi boshqa bir jism – Kun va uning holati bilan bogʻliq fikrlariga eʼtibor qaratamiz. Asar qahramoni Kuntugʻdi, oʻz otining maʼnosini taʼriflar ekan, sifatini Kunga oʻxshatadi. Shu oʻrinda kunni taʼriflab, deydi:

*Yana ma bu Kün burjī sābit turur,
Bu sābit tedüküm tübi berk bolur.*

*Bu Kün burjī Arslan, bu burj tebrämäs,
Ewi tebrämäsä üçün artamas.*

«Yana shu borki, Kun burji sobitdir [barqaror, turgʻundir], / Sobit dega-
nimning maʼnosi shuki, uning asosi mahkamdir [yaʼni Kun burji oʻzgarmasdir].

Bu Kun burji Arslon [yaʼni «Asad»]dir, bu burj tebranmaydi, / Uyi [yaʼni «burji»] tebranmaydi, shuning uchun oʻzi buzilib kamaymaydi» (QBN.36a,2–3).

Yusuf Xos Hojibning taʼrificha, Kun qoʻzgʻalmasdir. Kun burji barqaror, turgʻundir. *Kün burji sâbit turur* («Kun burji sobitdir») deya urgʻulaydi olim. Shuning uchun doim birday yorugʻliq sohib turadi.

Boshqa bir yogʻi, muallifning ushbu fikrlari asosida katta bir masala turibdi. Bu jumboqni shunday tushuntirish mumkin: Falak va Yer doimiy harakatda. Kun markazda turadi, u turgʻundir. Yer esa uning tevaragida aylanadi. Bu fikrlar ulugʻ olimning dunyo va uning tuzilishi toʻgrisidagi falsafiy qarashlarining magʻzini tashkil qiladi.

Muhimi, muallifning yuqorida taʼkidlagan falsafiy qarashlari badiiy koʻrinishda, asarning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari hamda qahramonlarning holati bilan uygʻun ravishda tasvirlanadi.

YUSUF XOS HOJIB OʻGITLARIDAN

Tilning fazilati, foyda-zarari toʻgʻrisida

*Sözüñni ködäzgil, başıñ barmasun,
Tiliñni ködäzgil, tişıñ sinmasun.*

«Soʻzingga ehtiyot boʻl, boshing ketmasin,
Tilingga ehtiyot boʻl, tishing sinmasin» (QBN.13a,13).

*Esänlik tiläsä seniñ bu özüñ,
Tiliñdä çıqarma yaraqsız sözüñ.*

«Sening oʻzing esonlik tilasang,
Tilingdan yaroqsiz soʻzingni chiqarma» (QBN.13b,2).

*Bilip sözläsä söz biligkä sanur,
Biligsiz sözi öz başını yeyür.*

«Soʻzni bilib soʻzlasa, donolik sanaladi,
Nodonning soʻzi oʻz boshini yeydi» (QBN.13b,3).

*Öküş sözlämä söz, birär sözlä az,
Tümän söz tügünün bu bir sözdä yaz.*

«Soʻzni koʻp soʻzlama, bir-bir soʻzla, oz (soʻzla),
Tuman soʻzning tugunini [yaʼni, jumbogʻini] shu bir soʻzda yechib ber»
(QBN.13b,5).

*Kişi söz bilä qoptı, boldı malik,
Öküş söz başıñ yerkä qıldı külik.*

«Kishi soʻz tufayli koʻtariladi, malik boʻladi,
Koʻp soʻz (esa) boshni yerga egadi» (QBN.13b,6).

*Tiliy keḥ köḍäzgil, köḍäzildī baṣ,
Sözüñni qisuryil, uzatildī yaṣ.*

«Tilingni nihoyatda ehtiyot qil, bosh saqlanadi,
Soʻzingni qisqa qilgʻil, yoshing uzayadi» (QBN.13b,9).

*İki nāñ bilä er qarimaz özi:
Bir eḍgü qilincī, bir eḍgü sözi.*

*Kişi tuydī, öldi, sözi qaldī, kör,
Özi bardī yañluq, atī qaldī, kör.*

«Kishi ikki narsa bilan qarimaydi:
Biri – ezu xulqi, biri – ezu soʻzi.

Inson tugʻiladi, oʻladi, uning soʻzi qoladi, koʻrgin,
Insonning oʻzi oʻladi, oti qoladi, koʻrgin» (QBN.13b,14–15).

*Kiṣidin kişikā qumaru söz-ol,
Qumaru sözi tutsa, asyī yüz-ol.*

«Kishidan kishiga (qoladigan) meros soʻzdir,
Meros soʻzni [yaʼni, otalar soʻzini] tutsang, foydasi yuz-yuzdir»
(QBN.14a,8).

Bilim, uquv-idrokning farqi va foydasi toʻgʻrisida

*Uquṣ-ol yula-teg qarañqu tüni,
Bilig-ol yaruqluy yaruttī seni.*

*Uquṣun ayaṛ-ol, biligin beḍür,
Bu iki bilä er ayirliq körür.*

«Uquv-idrok qorongʻu tundagi mashʼal singaridir,
Bilim senga yorugʻliq sochgan roʻshnolikdir.

Uquv-idrok bilan kishi yuksaladi, bilim bilan buyuklashadi,
Bu ikki narsa bilan kishi qadr-qimmat qozonadi» (QBN.17b,5–6).

*Kimiñdä uquş bolsa aşlı bolur,
Qayuda bilig bolsa, beglik alur.*

«Kimda uquv-idrok boʻlsa, u asl boʻladi,
Qay bir (kishi)da bilim boʻlsa, u beglik qozonadi» (QBN.18a,2).

*Uquş birlä aşlı atanur kişi,
Bilig birlä beglär etär el işi.*

«Uquv-idrok tufayli kishi asl ataladi,
Beglar el ishini bilim bilan bajaradi» (QBN.18a,4).

*Uquş azin azlanma, asiyi öküş,
Bilig azin azlanma, erkä köşüş.*

«Uquv-idrokning ozini oz dema, (uning) foydasi koʻpdir,
Bilimning ozini oz dema, (u) kishi uchun qimmatlidir» (QBN.18a,6).

*Bilig bayliq-ol bir çiyay bolyusuz,
Tegip oyri tewlig ani alyusuz.*

«Bilim qashshoq qilmovchi [yaʼni, bitmas-tuganmas],
Oʻgʻri, aldoqchi qoʻl urib, uni ololmaydigan bir boylikdir» (QBN.18a,14).

*Biliglikkä bilgi tügäl ton, aş-ol,
Biligsiz qilinçi yawuz qoldaş-ol.*

«Bilimliga uning bilimi tugal kiyim va yemishdir,
Bilimsizning qilmishi unga yovuz (niyatli) qoʻldoshdir» (QBN.18b,7).

**«QUTADGʻU BILIG»NI OʻQUVCHINING OʻZI
ERKIN OʻQIB OʻRGANISHI UCHUN TAVSIYA
ETILADIGAN KIROBLAR:**

Древнетюркский словарь. – Ленинград, 1969.

Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1971.

Каримов Қ. Илк бадиий дoston. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1971.

Юсуф Баласағуни. Благодатное знание. Перевод С.Н. Иванова. – Советский писатель. Ленинградское отделение. – 1990.

Содиқов Қ. «Қутадғу билиг»нинг тил хусусиятлари. – Ўлмас обидалар (Ўзбекистон халқларининг қадимги ёзма ёдгорликлари бўйича тадқиқотлар). – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1989. – 229–306- б.

Содиқов Қ. «Қутадғу билиг»нинг уйғур ёзувли Ҳирот нусхаси. – Тошкент, 2010.

Sodiqov Q. Oʻzbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). Darslik. – Toshkent: «Akademnashr», 2022.

Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari tili. – Toshkent: «Akademnashr», 2025.

Тўхлиев Б. – «Қутадғу билиг»нинг поэтикаси масалалари. – Ўлмас обидалар (Ўзбекистон халқларининг қадимги ёзма ёдгорликлари бўйича тадқиқотлар). – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1989. – 307–441- б.

«Қутадғу билиг» сўзлиги. Тузувчи: Қосимжон Содиқов. – Тошкент: «Akademnashr», 2020.

Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

RISOLADA HAVOLA ETILGAN ASARLAR:

ДТС – Древнетюркский словарь. – Ленинград, 1969.

Müb – *Zahīrūʻd-dīn Muḥammad Bābūr Mīza*. Mübeyyen der Fıkh (Giriş – Metin – Dizin - Tıpkıbasım). Hazırlayan: Dr. Tanju Oral Seyhan. – İstanbul, 2004.

Mun. – «Munshaot»: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 317 / 1513 koʻrsatkichli Navoiy kulliyotida (387b–406a).

NMb – «Nasoyimu-l-muhabbat»: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 316 / 1513 koʻrsatkichli Navoiy kulliyotida (22b–154a).

SM – «Siroju-l-muslimin»: Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Suppl. Turc. 316 / 1513 koʻrsatkichli Navoiy kulliyotida (19b–21b).

ТТЧ – Мовароуннахр туркий тафсирлари тарихидан [Таржима-и Тафсир-и Чархий]. Сўзбоши, табдил, изоҳ ва мавзу кўрсаткичлари муаллифлари: И. Усмонов, Г. Саидова. – Тошкент: «Мовароуннахр», 2012.

Ok (~ *Okıgu*) – *Okıgu*. En Eski Kurʻan Çevirisi. I. Giriş - Metin - Dizin. Hazırlayan Ekrem Ural. – İstanbul: Kutlu Yayınevi, 2023.

QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» masnaviysi: *H* – Vena (Hirot) nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: *Радлов В.В.* Кутадку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи. – СПб., 1890; *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *N* – Namangan (Fargʻona) nusxasi: Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, 1809 koʻrsatkichli qoʻlyozma. *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; *Q* – Qohira nusxasi: Misr Milliy kutubxonasi, 168- koʻrsatkichli qoʻlyozma: *Yusuf Has Hacib*. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

Sodiqov 2022 – *Sodiqov Q.* Oʻzbek mumtoz adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot). – Toshkent, 2022.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Masnaviyning qoʻlyozma nusxalari.....	5
«Qutadgʻu bilig» Namangan nusxasining ochiqqlamasi	9
Kitobning oti va dovrugʻi.....	19
Asarning tuzilishi va janri.....	20
Asarning mazmuni va yoʻrigʻi.....	24
Allohning goʻzal ismlari	28
Basmala va uning turkiy tilda ifodalanishi	38
Yetti yulduz oʻn ikki burj atamallari	42
Yusuf Xos Hojib oʻgitlaridan	49
«Qutadgʻu bilig»ni oʻquvchining oʻzi erkin oʻqib oʻrganishi uchun tavsiya etiladigan kiroblar:.....	51
Risolada havola etilgan asarlar:	53

Qosimjon Sodiqov

**YUSUF XOS HOJIBNING
«QUTADG‘U BILIG»
MASNAVIYSI**

Ilmiy-ommabop risola

«Pages print» nashriyoti
Toshkent – 2025

Nashr uchun mas‘ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **O‘. Namozova**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



Nashriyot ro'yxat raqami № 263082. 25.04.2024-y.

Bosishga ruxsat etildi: 17.07.2025.

«Times» garniturası. Qog'oz bichimi: 70x100 1/16

Nashriyot bosma tabog'i 3,2. Soni 100 ta.

Toshkent shahri, Olmazor tumani,

Chimboy ko'chasi, 8-uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Olmazor tuman, Chimboy ko'chasi, 8-uy.